



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

«Tasdiqlayman»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

_____ A.Sh.Mamatyusupov

5A110902 – PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA YO`NALYSHI
BITIRUVCHISI ADILOVA SHAHNOZANING

OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSI O'ZINI-
O'ZI ANGLASHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARI
mavzusidagi

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI



Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
tavsiya etildi

Psixologiya kafedrasi mudiri:

Ilmiy rahbar:

_____ p.f.n. T.Sulaymonova

_____ dotsent M.Xalimova

ANDIJON – 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. OILAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA BOLANING O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHI MUAMMOSI.....	14
1.1. Ong va o‘zini-o‘zi anglash, “Men” konsepsiyasi va “Men” obrazi fenomenining psixologiyada o‘rganilishi.....	14
1.2 Oilaviy ijtimoiylashuv jarayonida bola o‘zini-o‘zi anglashini o‘rganish masalasi.....	36
1.3. Bolaning o‘zini anglashida ona shaxsining roli.....	42
II BOB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA “MEN” KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARNI O‘RGANISH.....	46
2.1. Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlari shakllanishida referent guruh sifatida oilaning roli.....	46
2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zini-o‘zi anglashida ota-ona o‘zaro munosabatlarining roli.....	49
2.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Men” konsepsiyasining rivojlanishi bilan er-xotin munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligi.....	54
III BOB. OILAVIY MUNOSABATLARNING O‘ZIGA XOSLIGI VA BOLALARDA “MEN” KONSEPSIYASINING TUZILISHINI EMPIRIK JIHATDAN O‘RGANISH.....	61
3.1. Tadqiqot metodikalari.....	61
3.2. Ota-onalar va bolaning o‘zini anglash diagnostikasi natijalari.....	73
XULOSA.....	81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	84

KIRISH.

Prezidentimiz I.A.Karimov Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istikbolning asosiy tamoyillarini bayon kilar ekan madaniy-ma'rifiy sohadagi ishlarga mus-takil respublikamizda ma'naviyatini rivojlantirish masalalariga ham aloxida tuxtalib, kuyidagilarni ta'kidladi: "Endigi asosiy vazifa kishilarimizni mustaqil fikrlashga o'rganishi, o'ziga ishonchining ortib borishidir. Chunki tafakko'r ozod bulmasa, ong va shuko'r tarzidan kullikdan kutulmasa, inson tula ozod bulmaydi".

Taraqqiyot takdirini ma'naviy jixatdan yetuk odamlar xal qiladi. Aqliy zakovat va ruxiy ma'naviy saloxiyat-ma'rifatli insonning ikki qanotidir". Ana shu vazifa kasb xunar ta'limi tizimi zimmasiga ta'lim-tarbiya, kasbiy ta'lim ishlarini xozirgi davr talablariga muvofiq yanada takomillashtirish bo'yicha goyat muxim majburiyatlarni yuklaydi. Bugungi kunda butun dunyoda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar o'qitish va tarbiyalash nazariyasi hamda amaliyotida juda ko'p o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Yangi ijtimoiy sharoitlarda mavjud pedagogik amaliyot metodologik va amaliy muammolarni nazariy jihatdan chuqur anglamasdan turib amalga oshirila olinmaydi, chunki mazko'r muammolarni hal qilmasdan turib, ta'lim va tarbiyada samaraga erishib bo'lmaydi.

Demak, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, demografik, ekologik, ijtimoiy va inson intellekti borasidagi buhronlar, tub o'zgarishlar zamonaviy psixologiya fanlariga talab hamda ehtiyojning ortishiga sababchi bo'lmoqda.

Inson uzining butun xayoti va faoliyati davomida ob'ektiv dunyoni bilib boradi. Bilish dunyoni inson ongida aks etishining murakkab jarayoni bo'lib, u bilmaslikdan bilishga, noani va to'la bo'lmagan bilimlardan ancha aniq va to'la bilimlarga tomon xarakat kilish sifatida soodir bo'ladi. Bilish tevarak-atrofdagi odamning narsa va xodisalarni xissiy idrok kilishdan boshlanadi. Tashki olamning sezgi, idrok va tasavvurning xosil bulishiga olib keladi, bular real borlikdagi narsalarni inson ongida aks ettiradi. Tevarak-atrofdagi olamga muvaffakiyatli ta'sir etish uchun bu olam rivojlanishining ob'ektiv konuniyatlarini bilish kerak. Fakat

xissiy bilish yordamidagina bu konunlarning moxiyatini tushunish mumkin emas. Abstrakt tafakkur tabiat va jamiyat xayoti rivojlanishining ob'ektiv konunlarini bilishga xizmat kiladi. Abstrakt tafakkur xissiy bilish axborotlarini umumlashtirib, narsa va xodisalardagi xamma muxim bulmagan tasodifiy tomonlardan uzoklashadi xamda narsa va xodisalarning moxiyatiga kirib borib, ularning rivojlanishidagi umumiy konuniyatlarni ochib beradi. Umumlashtirish natijalari fan tushunchalari va konuniyatida ifodalanadi. Ularning xakikiyligi amaliyotda tikshiriladi, amaliyot bilimlarning xakikiyligini kursatuvchi oliy mezondir.

Mavzuning dolzarbligi. Ta'kidlash joizki, **oila** ijtimoiy institut sifatida o'zining barcha vazifalarini bajargan taqdirdagina, mafkuraviy tarbiyaning kafolatli o'chog'iga aylanadi. Zero, har bir **oilaning** muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya'ni, ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom, barkamol inson faqat sog'lom oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma'naviy takomilining aslosidir.

Sharqda bir necha asrlar oldin oila va uni tashkil etish, oilaviy munosabatlar, uning shaxs kamolotidagi o'rni va roli xususida Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Jaloliddin Davoniy, Muxammad Sodik Koshgariy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz ham o'z karashlarini bayon etib kelganlar.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ijod qilgan o'zbek ma'rifatparvarlari Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriylarning asarlarida xalqimizning milliy qadriyatlari, turmush tarzi, oiladagi farzandlar tarbiyasi milliy ruhda ifodalangan.

Mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqqan O'zbekistonda ko'plab yangi sohalar qatori aholiga psixologik maslahatlar berish hamda oilaviy psixoterapiya sohasini rivojlantirishga xizmat qiladigan tadqiqotlarga bo'lgan muayyan ehtiyoj tobora ko'proq sezilmoqda. Zero, bunday xizmatlarga ehtiyoj bir tomondan oilaviy

munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, shu maskanda tarbiyalanayotgan bolalarning psixologik rivojlanishiga ota-onalar tomonidan ko'rsatiladigan e'tiborning samarasini belgilaydi.

Bolaning psixik rivojlanishi uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarga, xususan, undagi o'zlikni anglash, o'ziga-o'zi beradigan baholar hamda munosabatlarning xarakteriga bog'liqdir. Bu, avvalo, inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi ontogenezning dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan, ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek, ota-ona va farzandlar o'rtasida o'rnatiladigan munosabatlarning tabiati katta rol o'ynaydi. Oila ijtimoiy guruhlarining eng kichigi bo'lib, bolada o'zi va o'zgalar to'g'risida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarining dastlabki muhiti sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga molik maskandir. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir".¹ Tadqiqotning dolzarbligi, shu nuqtai nazardan boladagi jamiyatda, insoniy munosabatlar tizimida munosib maqomga ega bo'lishini ta'minlaydigan eng dastlabki ijtimoiy tasavvurlar hamda o'zi va o'zgalar to'g'risidagi tushunchalarning shakllanishiga oiladagi ma'naviy-ruhiy munosabatlarning rolini aniq empirik ma'lumotlar bilan asoslashga bo'lgan davrning ehtiyojidan kelib chiqadi.

Ko'plab psixologik tadqiqotlarda oila bola shaxsining shakllanishi va uning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanadi. Lekin boladagi o'zi to'g'risidagi barcha tasavvurlarning shakllanishida u tarbiyalanayotgan oiladagi munosabatlarning xususiyatlari, oila tiplari va ota-onalik maqomlarining ular

¹ Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008 – 52 б.

tomonidan qay darajada anglanishining bevosita roli alohida tadqiqot doirasida O‘zbekiston sharoitida o‘rganilmagan. Bu masala amaliy ahamiyatga molik bo‘lib, “...inson o‘z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan”.² Demak, shu informatsiyalar orasida bolaning o‘z “Men”ini to‘g‘ri shakllantiradigan va shu orqali uni ijtimoiy psixologik munosabatlarga ruhan tayyorlaydigan ma’lumotlarning manbai va ta’sir kuchini o‘rganish yosh ota-onalar va oilashunoslar uchun o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishining o‘rganilganlik darajasi. Psixologiya nazariyasi va amaliyotida oila va oilaviy tarbiya masalasi yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgandir. Nikox shartnomasini tuzish, oilaviy kelishmovchiliklar, shuningdek, er-xotin o‘rtasidagi muammolar va oilaviy munosabatlarni tashkil etishning ijtimoiy, xuquqiy, psixologik hamda psixologik jihatlari pedagog, psixolog, faylasuf va xuquqshunos olimlar O.A.Karimova, A.K.Munavvarov, F.B.Shoumarov, Sh.B.Shoumarov, X.Uzokov, E.Foziev, L.Oripova, R.Saidov, M.Axmedov, M.Maxmudov, O.Safarov, N.Sa’dullaeva, M.Xolmatova, M.O.Inomova, O.Musurmonova, S. Yo‘ldosheva, I.V.Grebennikov, I.V.Dubrovina hamda G.P.Razumiginalar tomonidan chukur o‘rganilgan.

Oilada bolalar tarbiyasini tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, oila tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda milliy an’analardan foydalanish masalalari esa Yu.P.Azarov, M.Dadajonov, M.J.Inoyatov, M.O.Inomova, K.F.Kamolova, Sh.Shodmonova, Sh.Otajonova, I.X.Karimova, O.Buriev, B.A.Mirenskiy, S.E.Karklina, I.D.Vodzinskiy, A.I.Kochetov, K.A.Kulinkovich hamda Ya.Raxmonova kabi pedogog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Respublikamizda mazkur yo‘nalishga aloqador ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, E.G‘.G‘oziev, B.R.Qodirov, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova va boshqalarning tadqiqotlari shaxsning ijtimoiylashuvi va unda oilaviy

² Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008 – 53 б.

ijtimoiylashuvning o'rnini tadqiq etishga bag'ishlangan. Bundan tashqari chet el olimlari tomonidan ham mazkur mavzuga oid ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligi va ularning natijasida yetarlicha ilmiy-amaliy tajriba to'planganligini ko'rishimiz mumkin. Bu masala B.G.Ananayev, L.S.Vygotskiy, M.I.Lisina, V.S.Muxina, K.Rojers, Z.Freyd, K.Xorni, E.Erikson va boshqalar tomonidan o'rganilgan, lekin ularda ota-onalik ijtimoiy maqomining bolada o'zini-o'zi anglashiga ta'siri bevosita o'rganilmagan.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi "Oila" ilmiy-amaliy markazining istiqbol rejalari hamda Markaz tomonidan ishlab chiqilgan "XXI asr oilasi" konsepsiyasi doirasida ko'zda tutilgan vazifalar, amalga oshirilayotgan davlat ilmiy-tadqiqot izlanishlar dasturi, shuningdek "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish borasida olib borilayotgan bir qator ilmiy tadqiqot rejalari bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqotning ishining maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolaning o'zini-o'zi anglashi mazmuniga ta'sir ko'rsatuvchi oilaviy munosabatlar, xususan, ota-ona va farzandalar munosabatidagi ijtimoiy psixologik ta'sirlar va er bilan xotin o'rtasidagi hamda ota-ona bilan bola o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro bog'liqligini tadqiq qilish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zini-o'zi anglashining psixologik xususiyatlari va "Men" konsepsiyasining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun nazariy manbaalar bilan ishlash, ilmiy adabiyotlar taxlili..

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zini-o'zi anglashiga taalluqli bo'lgan asosiy psixologik komponentlarni va ularga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarning xususiyatlarini aniqlash.

3. Oiladagi munosabatlarning sub'ektlari sifatidagi ota-onaning o'zlikni anglash xususiyatlarini idrok qilish, bola tarbiyasidagi burch tushunchasining psixologik mexanizmlarining shakllanganlik darajasini, oilaviy munosabatlarning,

ota va ona, ota-ona hamda bola munosabatlarining turli jihatlari o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni aniqlash orqali "Men" obraziga tegishli ijtimoiy psixologik mexanizmlarni tadqiq qilish.

4. Oiladagi munosabatlar, er xotin o'rtasidagi kattalar va yoshlar o'rtasidagi, aka-uka, aka singil munosabatlariva ota va ona o'rtasidagi, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari, bola "Men" konsepsiyasining mazmunidan kelib chiqib, ayrim alohida komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tajribalar asosida empirik jihatdan asoslash.

Tadqiqot ishining ob'ekti: to'liq yosh oilalarning vakillari bo'lmish 35 nafar ona va 35 nafar ota hamda ularning maktabgacha yoshli farzandlari xizmat qildi. Tadqiqotda jami 90nafar respondentlarishtirok etdilar.

Tadqiqot ishining bazasi Andijon shaxar maya bag'cha MFY yashovchi oilalar.

Tadqiqot ishining predmeti: maktabgacha yoshdagi bola "Men" konsepsiyasining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari va ularning rivojlanish darajasi, oiladagi munosabatlar xususiyatlarining o'zaro aloqasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari:

1. O'zini-o'zi va oila a'zolarini baholash usuli sifatida Dembo-Rubinshteyn tomonidan taklif etilgan shkalali usul.

2. Maktabgacha yoshdagi bola o'zini-o'zi baholashining shakllanish xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan V.G.Shurning "Zinachalar" proektiv metodikasi.

3. Ye.I.Zaxarovaning "Ota-onalar munosabati" so'rovnomasi.

4. Ota-ona va bola munosabatlaridagi jinsiy identifikatsiyaning xususiyatini aniqlash uchun G.Filippovaning "Men va mening bolam" proektiv metodikasi.

5. R.F.Belyauskaytening "Oilaning kinetik rasmi" (OKR) metodikasi.

6. Bolaning o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlarini aniqlashga mo‘ljallangan “Kel, tanishamiz!” va “Sen kimsan?” so‘rovnomasining muallif tomonidan ishlab chiqilgan varianti.

Dissertatsiya ishining farazi: Agar

1. Maktabgacha yoshdagi bola “Men” konsepsiyasining asosiy kognitiv mazmunida bilish faolligi negizida uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan ijtimoiy psixologik yondashuv va akliy komponentlarning bola hohish istak va mayillarining o‘zlikni anglash bilan belgilanadigan komponenti yetakchi rol o‘ynaydiki, bu jihat oiladagi ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning xarakteridan kelib chiqishi ehtimol.

2. Bola psixik taraqqiyotining keyingi bosqichlarida “Men” konsepsiyasi rivojlanishining asosiy omili sifatida ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlar bilan birga er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari hamda er-xotinlik munosabatlarining bola tomonidan idrok etilishi darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu asosiy taxminlarimizning mazmuni quyidagi ishchi taxminlar asosida o‘z isbotini topadi:

a) o‘zini baholashi yuqori va ota-onalar tomonidan ham baholanishi yuqori bo‘lgan bolalar o‘z ota-onasining har qanday bahosini, hatto tanqidiy bahosini ham qabul qiladi, ularning fikriga qo‘shiladi, bunday bolalarda o‘ziga nisbatan ishonch hissi mavjud bo‘lib, bu ularning o‘z ota-onalari bilan yaqin bo‘lishini ta’minlashi mumkin;

b) o‘zini baholashi yuqori va ota-onalar tomonidan baholanishi o‘rtacha bo‘lgan bolalar – o‘zini baholashda ota-onasining o‘zi haqida fikri baland emasligini ifodalash orqali o‘zi to‘g‘risida shakllanayotgan obrazni aniq tasavvur qilishi qiyin, shu sabab istiqbolda uning o‘ziga munosabati salbiy bo‘lishi ehtimol;

v) o‘zini baholashi o‘rtacha va ota-onalar tomonidan ham baholanishi o‘rtacha bo‘lgan bolalarda ko‘proq o‘zaro noadekvat munosabatlar shakllanadi, chunki bu toifa bolalar o‘z hissiyotlarini aniq namoyon qila olmaydilar;

g) o‘zi tomonidan baholashi o‘rtacha bo‘lgan, lekin ota-onalar tomonidan

baholanishi yuqori bo'lgan bolalardagi "Men" obrazi ijobiy bo'lib, ularning o'zi to'g'risidagi tasavvurlari ko'proq xolis hamda to'g'ri bo'lishi mumkin.

Dissertatsiya ishining metodologik va nazariy asoslari. Tadqiqotga mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, nutqlarida oilaning ma'naviy jihatdan tarbiyalovchi rolini oshirish, uning ma'naviyatni yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan fikrlari, tavsiyalari va xulosalari metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Bundan tashqari, L.S.Vygotskiyning bola shaxsini konkret ijtimoiy-madaniy sharoitlarda shakllanishi, tarixiy-madaniy vaziyatlarning rolini asoslovchi nazariyasi; A.N.Leontevning bola rivojlanishining har bir bosqichida uning ruhiy hayotidagi o'zgarishlar o'rtasida ichki bog'lanishlar mavjudligi haqidagi konsepsiyasi xizmat qildi. Bundan tashqari, o'zbek psixologlari M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, E.G'.G'oziev, B.R.Qodirov, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova va boshqalarning shaxs ijtimoiylashuvi va bunda oilaviy ijtimoiylashuvning o'rniga bag'ishlangan tadqiqotlarining konseptual xulosalari, shuningdek, dissertatsiyada bola ongida "Men" tushunchasining ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasidagi nazariy qoidalarga bog'liq tomonlari ijtimoiy psixologik nuqtai nazaridan metodologik manba sifatida foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi va o'z fazilatlarini to'g'risidagi tasavvurlari, eng avvalo, jamiyatda tutajak o'rni va maqomini belgilovchi muhim mexanizmki, uning mazmuni shaxsning nafaqat o'ziga, balki o'zga shaxslarga bo'ladigan ijtimoiy munosabatlari va ijtimoiy xulqining asosi hisoblanadi. Bunda maktabgacha yoshdagi taraqqiyot davrini boshdan kechirayotgan inson uchun yetakchi ijtimoiy omil va guruh sifatida oila alohida o'rin va nufuzga egadir.

2. Shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning o'zi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlari tizimining shakllanishida oila omilining roli shundaki, bunda asosiy shakllantiruvchi mexanizm rolini, eng avvalo, oiladagi ma'naviy-ruhiy muhit, uni

tashkil etuvchi ota-ona va yaqinlarning o‘zaro munosabatlaridan tashqari ota-onaning farzandga bo‘lgan munosabatlari, bola ongida shakllantiriladigan kognitiv fikr-tushuncha va g‘oyalar katta rol o‘ynaydi.

3. Ota-ona munosabatlari ta’sirida shakllangan “Men” konsepsiyasi besh tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, unga qadriyatlar konsepsiyasi, nominatsiyalar konsepsiyasi, yosh konsepsiyasi, ijtimoiy muhit konsepsiyasi hamda jins konsepsiyalari kiradi va ular o‘ziga xos ierarxik tuzilmaga egadir. Taraqqiyotning har bir bosqichida ushbu bosqichning yetakchi faoliyati va omillariga bog‘liq tarzda uning u yoki bu komponenti yetakchi bo‘ladi.

4. Maktabgacha yoshdagi taraqqiyot bosqichida jinsiy o‘zlikni anglash konsepsiyasi, ya’ni shaxsning qaysi jins vakili ekanligiga oid tasavvurlar ustuvor bo‘lgani uchun ham ota-ona va ular o‘rtasidagi jinslararo munosabatlar o‘zlikni anglash jarayonining bosh yo‘nalishi hisoblanadi.

5. Maktabgacha yoshdagi bola “Men” konsepsiyasining tuzilishi, uning ayrim unsurlari, ularning o‘zaro nisbati va ontogenezning turli bosqichlaridagi mazmuni, shuningdek, ularning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi oilaviy munosabatlar bilan o‘zaro aloqasi, avvalo, oiladagi munosabatlar va ota-onaning o‘zlikni anglash darajasi bilan belgilanadi.

6. O‘zini baholashning shakllanish jarayoni murakkab bo‘lib, u bolaning o‘z “Men”ini baholashi va ota-onaning real bahosi o‘rtasidagi aloqani namoyish qilib, bolaning istiqboldagi psixik rivojlanishini bashorat qilishga imkon beruvchi mexanizmdir. Bunda bolaning ota-onasidan kutayotgan baho tizimi, ota va ona beradigan baholar o‘rtasidagi farq boladagi adekvat yoki noadekvat bahosi uchun psixologik zamin rolini o‘ynaydi.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va xajmi.dissertatsiya ishi kirish 3 bob, 8ta paragarf umumlashtirilgan xulosa va tavsiyalardan iborat.Jami---

Dissertatsiya ishing ilmiy yangiligi:

- Tadqiqotda ilk marotaba o‘zbek oilalarida bolalar o‘zini-o‘zi anglashining ijtimoiy psixologik fenomenlari maxsus tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilayotganligi;

- O‘zbekistonda psixologiya fanida birinchi marotaba shaxsning o‘zini-o‘zi anglash hodisasiga ijtimoiy-psixologik jihatdan yondashilganligi;

- Ilk marotaba ijtimoiy tasavvurlar doirasida shaxsning o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlari o‘zini-o‘zi anglashning ijtimoiy-psixologik mexanizmi sifatida qaralganligi.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati. Nazariy jihatdan olib qaraganda, tadqiqotning natijalari ijtimoiy psixologiya va yosh davrlari psixologiyasini yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitadi hamda o‘zini-o‘zi anglashning namoyon bo‘lishida milliy g‘oya, mafkura va maqsadga yo‘naltirilgan ma’rifiy ishlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Undan tashqari, tadqiqotda berilgan xulosa va takliflardan oila, oilaviy munosabatlar, tarbiya, o‘zini-o‘zi anglash (refleksiya) tushunchalari bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etishda hamda pedagogik psixologiyada jins pedagogikasi muammolarini hal qilishda, amaliy psixologiyada bolalar va ularning ota-onalari bilan maktab hayotiga tayyorgarlik bosqichidagi ishlarda, shuningdek, psixoterapiyada, oiladagi ichki munosabatlar – er-xotin hamda ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar diagnostikasi va korreksiyasi uchun samarali bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Amaliy jihatdan olib qaralganda, tadqiqot materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida, milliy tarbiya, davlat mustaqilligini mustahkamlashda oilalarning roli va boshqa bir qator mavzular bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borishda foydalanish mumkin. Tadqiqotning amaliy ahamiyati yana shundan iboratki, unda ota-onaning o‘zlikni anglash sub’ektlari sifatidagi rollari, ularning oiladagi o‘zaro munosabatlari xususiyati, maktabgacha yoshdagi bola “Men” konsepsiyasining rivojlanishidagi ahamiyati aniqlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun “Men” konsepsiyasi tuzilishini diagnostika

qilishning psixosemantik va proektiv metodikalarni qo'llash mumkin ekanligi g'oyasi asoslangan.

Natijalarning joriy qilinishi. Ishning natijalari psixologiya kafedrası ilmiy kengashidamuhokama etilgan va va respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallarilari makola tarzida e'lon kilngan.

Ishning sinovdan o'tishi. Tadqiqot

Natijalarning e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot yuzasidan

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsion ish kirish, 3 ta bo'lim,

I BOB. OILAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA BOLANING O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHI MUAMMOSI.

1.1. Ong va o‘zini-o‘zi anglash, “Men” konsepsiyasi va “Men” obrazi fenomenining psixologiyada o‘rganilishi.

Bugun oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molikligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Zotan, oila chindan ham jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning baxtiyorligi va farovonligi pirovard natijada jamiyatning barqarorligi, gullab yashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a‘zolarini, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyasi asosida tarbiyalash maskani sifatida ham katta ahamiyatga ega. Inson shaxsini shakllantirishda oila, shubhasiz, dastlabki bosqich vazifasini o‘taydi, ya’ni oilada odamlarning bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlariga ham, jamiyat va davlvtga nisbatan munosabatlariga asos solinadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan “ Inson huquqlari umumjahon deklatsiyasining” 16-moddasida shunday deyiladi:

“1. Balog‘atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklashlarsiz nikohdan o‘tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o‘tayotganda ham nikohda bo‘lgan vaqtda ham va nikoh bekor qilinayotganida ham bir xil huquqlardan foydalanadilar.

2. Nikoh, nikohdan o‘tayotgan ikkala tomonning hohishi va batamom roziligi bilangina tuzilishi mumkin.

3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy xo‘jayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga ega”. *

Hozir yer yuzida 6,2 milliard kishi istiqomat qilmoqda. Ularning 43 foizi shaharlarda, qolganlari esa qishloqlarda yashashadi. *

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi 1999 yildan buyon “Jamiyat va oila: ma’naviy va axloqiy olam” mavzuida so‘rov o‘tkazib keladi. Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad O‘zbekiston fuqarolarining oila va oilaviy munosabatlariga qarashi, milliy qadriyatlar va mahallaning oila hayotidagi o‘rni,

bu borada barqaror an'analarnitiklash, aholining huquqiy savodxonligi darajasini aniqlash va o'rganishdan iboratdir. So'rovda 10 ta viloyat, Qoraqalpog'iston va Toshkent shahri qamrab olindi. Unda erkaklar va ayollar, shahar va qishloq aholisi ishtirok etadi.

2002 yilgi so'rovda "Zamonaviy oila jamiyat hayotida qanday vazifani o'taydi?" degan savolga so'ralganlarning 47,5 foizi oila jamiyat va davlat asosi, deb javob berdi. So'rov ishtirokchilarining 21,2 foizi oila yosh avlodni tarbiyalash vazifasini bajaradi, degan fikr bildirdi. 11,2 foiz so'rov ishtirokchilarining fikricha, oila mamlakatda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko'maklashadi. 7,9 foiz odamlar esa oila vazifasini nasl qoldirishda deb biladi

Oilaning har bir inson hayotidagi ahamiyati haqida so'ralganlar quyidagi fikrlarni bildirdi: "u naslni davom ettirish, bolalar tug'ilishi va tarbiyasi uchun zarur"(63,2 foiz), "oilalar – inson qo'rg'oni, unga hayotda ishonch bag'ishlaydi" (28,8 foiz), "oilalar odam qariganida uni ta'minlash uchun zarur" (4,9 foiz). Ayni paytda so'ralgan poytaxtlilarning 52,2 foizi "oilalar ular uchun, avvalambor, hayotda ishonch bag'ishlovchi qo'rg'on ekanligini ko'proq ta'kidlashdi"

2003 yilgi so'rovda esa "Oilaning jamiyatdagi vazifasi nimadan iborat?" degan savolga so'ralganlarning aksariyati (70,5 foizi) oilalar hozirgi sharoitda, avvalo tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, deb javob bergan. "Jamiyatimizda inson ma'naviyatini shakllantirishga nimalar ko'proq ta'sir ko'rsatadi?" degan savolga so'rovda ishtirok etganlarning 77,1 foizi "oilalar", deb javob bergan. Shuningdek, ushbu savolga boshqa ijtimoiy institutlar orasida mahalla (43,2 foiz), ijtimoiy muhit yaqin qarindosh va do'stlari (36,9 foiz) kabi javoblar olingan. Oilalar qurishning ahamiyati haqidagi savolga so'ralganlarning ko'pchiligi er-xotinning o'zaro muhabbati (52,6 foizi) va bir-biriga bo'lgan ishonchi (48,9 foizi) mustahkam oilalar qurishning muhim sharti, deb javob bergan. "Har uch kishidan biri(34,9 foizi) hayot qiyinchiliklariga chidash va undan qoniqish hosil qilish, 27,7 foizi esa farzandlar – oilaning mustahkamlanishiga yordam beradi, deb biladi.

So‘rovda ishtirok etganlarning har beshtasidan biri (20,5 foizi) uchun oilaning moddiy farovonligi muhim omil hisoblanadi.*

Oilaviy hayotni tizimli tarzda tasavvur etib, uning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga jazm etgan olimlardan biri amerikalik tadqiqotchi Virjiniya Satir (1992, 2000) hisoblanadi. U oilaviy hayotni tavsiflash uchun quyidagi tushunchalarni ishlatadi:

Oila energetikasi, oila tizimi, chegarasi va funksional xususiyatlari. Bu bilan u kelib chiqishi nuqtai nazaridan biologik hisoblangan ijtimoiy institutga texnologik metodologiyani tadbiq etishga urinadi. Bunday yondoshuv XX asr o‘rtalariga xos bo‘lib, u tufayli olim oilani tushunish borasida nafaqat yangi yo‘nalishga asos soldi, balki uni davolash, bu boradagi tibbiy muammolarni ham o‘rganishni boshlab berdi. nikoh tarixiga qiziqqan olimlardan biri qadimgi grek faylasufi Platon bo‘lgan. Uning fikricha, barcha zamon va makonlarda patriarxal oila ijtimoiy munosabatlarning, jamiyat hayotining asosi bo‘ladi, davlat esa ana shu kabi oilalarning birlashuvidan paydo bo‘lgan.¹ Lekin Platonning o‘zi o‘z qarashlarini oxirigacha himoya qilib, fikrlarini yakunlay olmadi. “Ideal davlat”² deb nomlangan loyihasida u jamiyatda hamjihatlikni ta‘minlash uchun ayollar, bolalar birlashmalari va sarmoyalarning umumiylikiga erishish lozim, degan fikrni ilgari surdi. Lekin ayni shu oxirgi fikr aslida yangi emas edi. Qadimgi grek tarixchi olimi Geradot o‘zining mashhur “Tarixlar” deb nomlangan asarida ayollar birlashmalari bir qator qabilalar uchun o‘ziga xos xususiyat ekanligini ta’kidlagan edi³

Bu kabi ma’lumotlar antik davrga xos bo‘lgan qator manbalarda o‘z ifodasini topgan.

Aristotel Platonning izdoshi sifatida uning “ideal davlat”ga oid fikrlarini rivojlantirib, ustozining patriarxal, ya’ni, erkak kishi yetakchi bo‘lgan oila modelini yoqlab fikr bildirgan. Uning fikricha, oilalar birlashib, “turar-joylarni”, “turar-joylar” birlashib, yaxlit davlatni tashkil etadi. Platon va Aristotellarning shu kabi nuqtai nazarlari anchagina davrgacha hukmron bo‘ldi va oila jamiyatning

bo'lagi sifatida, o'ziga xos bo'linmas patriarxal institut sifatida idrok etildi. Fransuz ma'rifatparvari Jan-Jak Russo o'z davrida "Oila – eng qadimiy va asli tabiiy bo'lgan jamiyat bo'lagidir. Oila – kerak bo'lsa, jamiyat siyosiy qiyofasini belgilovchi obraz, bunda yetakchi, rahbar – go'yoki ota misoli, xalq esa – farzandlar kabidir"ⁱ deb yozgan edi. Bu aslida insoniyat tarixida uzoq vaqtgacha ustivor bo'lgan paternalizm tamoyilining yaqqol timsolidir ("patern" – ota, otalik, yetakchilik ma'nosini bildiradi).

Shunday qilib, antik davrning faylasuflari ham, ulardan keyingi o'rta asr, hattoki, yangi davrga kelib ham ko'plab tadqiqotchilar va allomalar oila institutiga alohida ahamiyat berib, o'z asarlarida ijtimoiy munosabatlarning tabiati va namoyon bo'lishini aynan oilaviy munosabatlarning xarakteridan qidirish lozimligi fikrini yoqlab keldilar. Shu kabi fikrni nemis faylasuflari Kant va Gegelning mutloq g'oyaga aloqador asarlarida ham ko'rish mumkin. Ular avvalo "oila" va "nikoh" tushunchalari o'rtasida bevosita aloqa mavjudligini ta'kidlaydilar. Shu bois bo'lsa kerak, hanuzgacha shu ikki tushuncha ko'pincha sinonimlarday o'zrao bog'liqlikda ishlatiladi. Shunday bo'lsada, oilashunoslar bu ikki tushunchaning o'rtasida nafaqat farq borligini, balki ular aslida tarixan turli davrlarda paydo bo'lganligini ham isbot qila oldilar.

Masalan, rus olimi A.G. Xarchevning kitoblarida bu ikki tushunchani farqlovchi jihatlar aniq belgilangan. Xususan, uning talqinida "nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi tarixan o'zgaruvchan o'zaro munosabatlarni bildirib, shu orqali jamiyat ularning jinsiy hayotlarini tartibga soladi, o'zaro er-xotinlik munosabatlarini hamda farzandlari bilan shakllanadigan munosabatlarni, bu boradagi huquq va majburiyatlarni belgilaydi, yo'naltiradi"ⁱⁱ. Oila esa nikohga nisbatan murakkabroq tabiatli munosabatlarni ifodalaydi, chunki u nafaqat er va xotinlarning o'zaro munosabatlarini, balki ularning farzandlari, qarindosh-urug'lar, ikkalalari uchun yaqin bo'lgan insonlar munosabatlarini ham qamrab oladi.

Oila va nikoh masalalariga tarixiy yondashuv shveysariyalik olim I.Baxoven (1815-1887) ishlarida, ayniqsa, uning "Onalik huquqi" kitobida yoritilgan. Undan

tashqari, amerikalik tadqiqotchi L.Morgan (1818-1881)ning asarlarida ham oilaga nisbatan evolyutsion qarashlar bayon etilgan bo‘lib, “Qadimgi jamiyat” kitobi buning yaqqol namunasi hisoblanadi. Bu asarlarda oila institutining bevosita jamiyat tarqqiyoti bilan bog‘liqligi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning takomili oilaning mustahkamligiga bog‘liq ekanligi g‘oyasi o‘z isbotini topgan. Bu o‘zgarishlar tarix mobaynida turli jins vakillari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga bog‘liq tarzda kechishi ham ta’kidlangan.

Shunday qilib, oilani ijtimoiy institut sifatida idrok etish va uni ilmiy jihatdan o‘rganish an‘analari tarixi XIX asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrdan boshlab jahonning turli burchaklaridagi taniqli sotsiologlar va antropologlar (L.Morgan, M.Kovalevskiy, B.Malinovkiy, P.Sorokin, keyinchalik A.Xarchev, S.Golod va boshqalar.) oila muammolarini o‘zlarining aniq tadqiqot mavzulari sifatida o‘rgana boshladilar. Olimlarning ta’kidlashicha, oila institutining o‘zi tabiati nuqtai nazaridan ancha konservativ, ya’ni o‘zgarmas, turg‘un tizim bo‘lgani bois, jamiyat miqyosida ro‘y beradigan o‘zgarishlar oila doirasida taxminan 10-30-yillardan keyingina aks eta boshlaydi. Bundan tashqari, rus sotsiologi S.Golodning yozishicha, Yevropa xalqlari hayotida, oilaviy munosabatlarda kuzatiladigan barcha ijobiy jarayonlar monogam, patriarxal oilaning saqlanib qolingani sababli ro‘y bergan bo‘lsa, qolgan barcha salbiy holatlar aksincha, oilada ro‘y berayotgan salbiy, yomon jarayonlardan kelib chiqadi. Bu kabi talqinlar tabiiyki, ko‘plab tadqiqotchilarga oila va uning istiqbolini tushunishga, mazkur yo‘nalishda jiddiy tadqiqotlar olib borishga xalaqit beradi.

Shunga qaramay, oila institutida kuzatilayotgan har qanday o‘zgarishlari odatda eng avvalo, ayolning – xotin-qizlarning jamiyat va oilada tutgan maqomlarining o‘zgarib borayotganligi, ular malakalarining oshib borayotganligi va kasb-hunar, lavozim pog‘onalarida erkaklardan qolishmaslikka intilayotganligi bilan izohlanadi. Qayd etilgan holat bevosita oila hayotida ro‘y berayotgan turli xil o‘zgarishlarga, ham salbiy, ham ijobiy hodisalarga sabab bo‘lmoqda.

Ikkala jins vakillari xaq-huquqlarining amalda tenglashib borayotganligi

xotin-qizlarning erkaklar – yigitlar oldida o‘zini tutishi va o‘z navbatida yigitlarning qizlarga, erkaklarning ayoliga bo‘lgan munosabatlari, xushomad qilishlarida o‘z aksini topmoqda. Ayniqsa, Yevropa xalqlarida nikoh oldi sovchilik instituti yo‘qolib, uning o‘rniga o‘z xohishi bilan o‘ziga nikoh sheriginini tanlashi an’anasi barqarorlashdi. Lekin ayni holat saqlanib qolgan mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda oila institutiga munosabat boshqacharoq, ya’ni an’analarga sodiqlik saqlanib qolgan. Sovchilikning ahamiyati shundaki, bunda o‘rtada turganlar, kelin-kuyov oilasini tanigan, bilgan, surishtirgan odamlar bo‘lgani sababli ham ular yosh oilaning mustahkam bo‘lishidan juda manfaatdordirlar, shuning uchun haqiqiy o‘zbekona mezonlar, “teng-tengi bilan” tamoyili asosida, sovchilar yordamida qurilgan nikohlar aksariyat holatlarda mustahkam bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, har bir davrda bo‘lgani kabi hozir ham yoshlarning o‘z ixtiyori bilan, bir-birlarini yoqtirib qolishlari oqibatida paydo bo‘lgan oilalar mavjud. Yoshlarning ayrimlari o‘z ixtiyori bilan qalliq tanlashni, yoqtirib, sevib turmush qurishni oldindan niyat qiladi. Shunisi borki, o‘z ixtiyori bilan turmush o‘rtog‘i tanlashda ota-ona va oilasi manfaatlari, ularning istak-xohishlari deyarli inobatga olinmaydi. Odatda bu kabi yoshlar nikoh oldidan ota-otasining roziligini olmaydi, shu sababli, ko‘pincha, bunday nikoh yengil-elpi qarorlar oqibati bo‘lib, uzoqqa bormasligi mumkin.

Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi 2003 yilda o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, ajralishib ketgan yosh oilalarning 90 foizidan ortig‘i nikoh motivi-sababi sifatida “sevish-sevilish”ni ko‘rsatganlar.

Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi tufayli XXI asrga kelib ayolning oila va jamiyatda tutgan o‘rni va maqomi keskin o‘zgardi. Oxirgi paytlarda butun dunyoda matriarxat davridagi kabi oilaning yetakchisi, boshlig‘i roliga ko‘pincha ayol da’vogarlik qila boshlashi kuzatildi. Buning oqibatida erkak kishining oiladagi yetakchilik roli, oilada resurslarni boshqarish, qarorlar qabul qilish va farzandlarni jamiyat hayotiga jalb etishdagi maqomi sezilarli darajada pastladi.

Ikkinchi tomondan, ayol-onaning oilasi va bola tarbiyasi uchun bo'sh vaqtining kamayib borayotganligi, reproduktiv mas'uliyatning jamiyatda lavozimlar pog'onasida yuqoriroq o'rin egallash istagiga nisbatan pastlab borayotganligi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shu sababli sanoati rivojlangan mamlakatlarda tug'ilishlar sonining kamayib borayotganligi, oqibatda aholi sonining keskin pasayishi kuzatilmoqda. Afsuski, bunday holatlar O'zbekistonning shahar hududlarida ham kuzatilmoqda.

Oilaning tarbiyalovchi vazifasi oila a'zolaridan tashqari boshqa insonlarga, muassasalarga – enaga va guvernantkalariga, yoki davlat tomonidan to'la muhofazaga olingan tashkilotlar – Mehribonlik uylari, Muruvvat uylari va boshqalar zimmasiga yuklatilmoqda. Sobiq totalitar tuzum davrida ushbu vazifaning davlat zimmasida ekanligi, individual, oilaviy tarbiyaning gruppaviy tarbiya bilan, tarbiyalanuvchi shaxsiga e'tiborning keskin kamayishi bilan o'zgartirildi. Oqibatda hech kimga tegishli bo'lmagan, psixik va aqliy rivojlanishi o'rtamiyona bo'lgan bolalar paydo bo'ldi. Bu ochiq yoki yashirin onalik deprivatsiyasini keltirib chiqardi.

Ya'ni, XX asr o'rtalariga kelib, monogam oilada o'zgacha uyg'unlik kashf etgan, yaxlit guruhday tasavvur etilgan oilaning vazifalari – nikohga kirish, jinsiy hayotni ta'minlash va o'zidan nasl qoldirish – reproduksiya bir-biri bilan bog'lanmagan vazifalar tarzida ayrocha, alohida funksiyalarday tasavvur etila boshlandi. Agar XX asrda oila paydo bo'lishi bilan unda farzandlar tug'ilishini kutish odatga aylangan bo'lsa, yangi davrga kelib, qachon tashkil bo'lganligiga qaramay, bola tug'ilishini rejalashtirmaydigan oilalar hamda boshqa tomondan, oilasiz, nikohsiz ham tug'iladigan bolalar ko'paydi. Ochiqroq aytadigan bo'lsak, turmushga chiqmasa-da, bola tug'adigan yolg'iz onalar ham paydo bo'ldi. Shu tariqa nikoh bilan oilaning reproduktiv vazifasi o'rtasida tafovut paydo bo'ldi.

Jinsiy hayot borasida sodir bo'lgan o'zgarishlar shuki, agar ilgari bunday munosabat oiladan tashqarida ro'y bersa, jamiyat ham, din ham uni qoralar edi. So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida erkaklar ham, ayollar ham erkin jinsiy

hayotga oddiy munosabat sifatida qaraydigan bo'lishdi. Ma'naviy inqiroz hisoblanmish bunday munosabatlarga jamiyatning befarqligi ilg'or fikrlovchi insonlarni jiddiy tashvishga solmoqda. Buning asosiy sababi jamiyatda ma'naviy qadriyatlar inqirozga yuz tutgani bo'lsa, ikkinchi tomondan, bunga ayollar o'rtasida kontratseptiv vositalardan foydalanishning urf bo'lishi va ular o'zlariga berilgan ijtimoiy erkinliklarni noto'g'ri idrok etishlari, ommaviy axborot vositalari orqali u yoki bu xalq mentalitetiga mos kelmaydigan axborotlarning keng tarqalishi sabab bo'layotir.

Eng achinarlisi, ayrim yoshlar va ularning ota-onalari uchun "nikoh" va "ajrim" tushunchalari oddiy narsaday, ziddiyatsiz qabul qilinadigan bo'ldi. Ular o'z shaxsiy mas'uliyatini his etmayptilar. Sanoat rivojlangan mamlakatlarda 51 foizgacha bo'lgan nikohlar muayyan muddatdan so'ng barbod bo'layotganligi odatiy holday qabul qilinadi. Chet el axborot vositalarining ba'zi taniqli shaxs, aktyor yoki millionerning har 3-4 yilda almashinib turiladigan nikohlari to'g'risida yozilayotgan maqolalari eng o'qimishli, qiziqarli axborotday talqin etilmoqda. Tabiiyki, bu ularni o'qiyotgan yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, bunday holatlarda ajrimlarning tashabbuskorlari ko'pincha ayollar bo'lib, bu o'z navbatida oila ajrimlari sonining ortib borishiga, farzandlarning aybsiz aybdorlarday noto'liq oilalarda tarbiyalanishiga olib keladi.

Oilani turlarga bo'lganda, turli olimlar turlicha yondashadilar. Masalan, Sank-Piterburg lik olim S.I. Golod (1998) faqat er va xotin hamda ularning farzandlaridan iborat oilalarni tasavvur etgan holda ularning oila davrasidagi ijtimoiy nufuzlari va rollari nuqtai nazaridan oilani toifalarga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Xususan, u monogam oiladagi munosabatlarni oilaviy tabaqalar nuqtai nazaridan farqlashni taklif etgan. Undan tashqari, Golod o'z kitobida oxirgi yillarda Rossiyada keng tarqab borayotgan o'ziga xos tabaqali oilalarga ham ilmiy jamoatchilikning diqqatini qaratadi. Patriarxal monogam oila – bu o'z mohiyatiga ko'ra oiladagi erkak kishining nufuzi, yetakchilik roli, xotinning unga, farzandlarning ota-onaga tobeligini nazarda tutadi. Bunday oilada o'g'il bolalar

otaning oilasini sira tark etmaydi, aksincha, uylangan taqdirda ham turmush o'rtog'ini shu xonadonga olib keladi, qizlar esa kimga turmushga chiqsa, uning familiyasiga o'tib, o'z ota-onasining uyini tark etadi. Bunday oilada urug'ning atalashi (familiya), shajara va mulkka egalik otaning yo'lidan amalga oshiriladi, oilaviy rollar esa erkaklarniki yoki xotinlarniki tarzida aniq tafovutlanadi. Erkaklar oilaning moddiy boyliklari, resurslari, ta'minoti bilan shug'ullansalar, ayollar asosan uy ishlari bilan band bo'ladilar.

Oilaning ijtimoiy nufuzi, obro'si otaning, erning, o'g'ilning iqtisodiy maqomidan kelib chiqadi, ayolniki esa – farzandlar soni bilan belgilanib, uning professional maqomi ko'p hollarda oilaning, turmush o'rtog'ining ijtimoiy maqomiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, farzandlar ko'z o'ngida otaning avtoriterti pastlaganday bo'ladi, ayrim holatlarda erning oila ta'minotidagi ulushi tushib ketishi ham ayolning oila moddiy ta'minotiga bevosita aralashishiga sabab bo'ladi.

Bola manfaatiga yo'nalgan oilaning ham turli ko'rinishlari bo'lib, ulardan biri avtoritar tipdir. Bunda bola soni bittami yoki ikkitami ota-onaning cheksiz g'amxo'rliqi, ular obro'si bilan parallel tashkil etiladi. Masalan, ko'pgina amaldorlarning oilasi shunday. Ota-ona bola nazarida eng nufuzli, aqli har narsaga yetadigan, shuning uchun bola ham xuddi otasi yoki onasiday bo'lib yetishish motivatsiyasi kuchli bo'ladi.

Ambivalent detotsentrik oiladagi bola ko'proq ota-onaning hissiy-emotsional g'amxo'rliqi ta'sirida bo'ladi. Masalan, bu agar qiz bo'lsa, u faqat otasi yoki onasi, yoki ikkisining doimiy erkalashlari og'ushida katta bo'lib, oxir-oqibat shunday holatga ko'nikib ketadi. Oilaviy munosabat faqat shunday bo'lsa kerak, degan fikr ba'zan o'zi mustaqil oila qurganda, uning yangi xonadonga ko'nikishiga jiddiy xalaqit beradi.

Kvaziavtonom detotsentrik oilada bola huquqlari kattalarniki bilan deyarli tenglashtiriladi, ularga kattalar bilan bir qatorda oilaviy yumushlarni bajarish erki, o'z holicha qarorlar qabul qilish huquqlari berilgan bo'ladi. Buning albatta, ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor.

Er-xotin oilasi XX asrning 60-chi yillarida paydo bo'lib, u ham ayollar, ham bolalar emansipatsiya jarayonlarining oqibati sifatida qaraladi. Bunday oiladagi o'zaro munosabatlar asosan erkak va xotin o'rtasidagi muomalaga, uning qanchalik samimiy, iliqligiga bog'liq bo'ladi. Ayolga o'z xohish-irodasini mumkin qadar namoyon etish, unga ma'lum ma'noda mustaqil erishish imkoniyati yaratiladi. U ko'p holatlarda turmush o'rtog'iga suyukli, erka va zarur yor rolini o'ynaydi. Golod er-xotinning bir-birlariga yaqin bo'lishlarining 4 xil jihatini farqlaydi: simpatiya (yoqtirish), samimiyat, minnatdorlik va erotik jihatdan bog'liqlik.

Monogam bo'lmagan oila toifasi chin ma'noda nikoh munosabatlariga tayanmaydi. Bundan oilaning uch xil ko'rinishi mavjud:

Ajrimlar tufayli paydo bo'lgan noto'liq oila – XX asrning oxirlarida ko'payib ketgan noto'liq oila turi. Golodning ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyadagi oilalar ajrimi shu qadar ko'paydiki, har 100 ta nikohga 51 ta oila ajrimi to'g'ri keldi. Bunga sabablardan biri ota-onalik rollarining bajarilmasligi, otaning bola tarbiyasidan sovuqqonlik bilan chetlashishidir, chunki ko'pgina otalar ajralishgandan so'ng ma'lum muddat o'tgach, farzandlari bilan umuman yuz ko'rmas bo'lib ketishadi. Afsuski, O'zbekistonda oila va nikoh nechog'li qadrlanmasin, oilaviy ajrimlar ham qayd etiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi yillarda yiliga o'rtacha 14,5 mingdan 15 mingacha oila ajrimlari qayd etiladi, ajrimlarning sudlar orqali rasmiylashtiriladigan turlari FXDYo orqali rasmiylashtiriladiganidan ko'proqdir. Ajrim bo'lgan oilalarning 70 foizi yosh oilalar bo'lib, ularda o'rtacha 2,5 ta bola chala yetim bo'lib qoladi. Bu kabi noto'liq oilalarda o'ziga yarasha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar paydo bo'ladiki, shu bois ham davlatimizning oila siyosatining mazmuni noto'liq oilalar sonini kamaytirishga qaratilgandir. Bunda masalaning moddiy tomonidan ham uning ma'naviy-ahloqiy tomonlari bizni ko'proq tashvishga soladi.

Beva bo'lib qolish, yoki turmush o'rtog'ining vafoti munosabati bilan noto'liq bo'lgan oila ham ko'proq onaning farzandi bilan yolg'iz qolishidir.

Bunday oilalardagi ma'naviy muhit ajrim tufayli paydo bo'lgan noto'liq oilanikidan farq qiladi. O'zbek onalari bunday holatlarda otasining ruhi hurmatidan farzandlarida yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashga intiladi. Bunday o'ziga xoslik qator tadqiqotlarda alohida qayd etilgan (G. Yadgarova, 2003).

Nikohdan tashqari oila 90-chi yillarda ko'paygan oila turi, unda asosan yolg'iz qolgan ayol-ona oilani tebratadi. Bunday oilalar o'sha davrda Rossiyada 20-21 foizni, Buyuk Britaniyada va Fransiyada – 32-35 foizni tashkil etgan bo'lib, ko'proq yoshgina bo'la turib ona bo'lganlar (15-19 yoshlilar) yoki aksincha, reproduktiv yoshdan o'tib qolganlar – 40-44 yoshlilar tashkil etadi. Bu o'rinda ikkala holatda xotin-qizlarning nikohga kirmasdan tug'ish motivlari turlicha bo'ladi.

Rossiyada ota-onalardan bittasigina bo'lgan oilalarda 1989 yilda 4,5 mln. bola yashagan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1994 yilda 5 millonga yetdi (A.G.Volkov, Ye.L.Soroko, 1999). O'zbekiston sharoitida bu kabi holatlar favqulotda holatlar sifatida qaraladi, chunki ayrim udumlar va milliy qadriyatlarimiz farzandning nikohdan tashqari paydo bo'lishini qoralaydi, Shunday bo'lsa-da, turli sabablar va otag'onalarning vaziyatlar qurboni bo'lishi natijasida mamlkataimizda otalikni belgilash holatlari ortib bormoqdaki, unda ham ko'pincha rasman oila nikohsiz oiladay tasavvur etiladi. Sha'riy nikoh o'qilgani bilan rasmiy ravishda nikohning o'z vaqtida qayd etilmasligi mentalitetimizga zid bo'lgan shu toifa oilaalrning rasmiylashtirilib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Alternativ oila turlari – kam uchraydigan oila turlari bo'lib, ular ayrim jihatlari bilan boshqalardan farqlanib turadi va o'z navbatida toifalarga bo'linadi. Masalan, ulardan biri – fuqarolik nikohi deb atalib, unda erkak va ayol o'z ixtiyorlari bilan rasmiy nikohni qayd emay, yashayveradi. Ba'zan bunday qarorga ular kutilmagan homiladorlik paydo bo'lganda ham kelishlari mumkin. Bunday nikoh bizning sharoitimizga, musulmonchilikka sira ham to'g'ri kelmaydi. Alternativ nkiohlar ko'proq g'arb mamlakatlariga xosdir. Lekin Golodning ta'kidlashicha, hozirda Rossiyada mavjud oilalarning 7% shunday nikoh asosida

tashkil topgan. Oilaning muqaddasligini tinimsiz targ'ib etishimiz azaliy qadriyatlarni ardoqlab kelayotgan yurtimizda bunday salbiy holatlarning bo'lmashligiga xizmat qiladi.

Alternativ nikohning yana bir ko'rinishi qayta nikohlardir. Odatda bunday nikoh turi beva yoki tul qolgan shaxslarda uchraydi. Aslida ham birinchi qayta nikohlar XVI asrda Angliyada qayd etila boshlagan. Hozirda esa bunday nikohlar odatda beva qolganlar yoki ajrashib ketganlar o'rtasida qayd etilishi mumkin. Bunday oila turi ham ajrimlar ko'payishiga mos tarzda ortib bormoqda.

Aralash oilalar yoki begona ota-onalar bilan yashaydiganlar oilasi. Bu – yetimlarni boqib olish hisobiga paydo bo'ladigan, otalikka olish, o'gay ota yoki ona bilan yashaydiganlar oilasidir. Ming afsuski, turli hayotiy vaziyatlar tufayli shunday oila ham bor, ular nisbatan ko'p bo'lmasa-da, O'zbekistonda ham mavjud.

Godvin – nikohlar, uning asoschisi bo'lgan ingliz sotsial-monarxi U.Godvin (1756-1836) nomi bilan bog'liq. U bunday oilani ideal deb hisoblagan, chunki bunday oilalar, asosan, ota-onaning xohish-irodasiga ko'ra paydo bo'ladi, yoshlarning istaklari bunda inobatga olinmaydi. Bunday nikohlarda jinsiy yaqinlik ko'zda tutilmaganligi sababli, o'zaro hurmat va bir tom ostida alohida yashashga mo'ljallangan bo'ladi, er va xotin bir-birlarining oldida faqat ma'naviy jihatdan majburiyatlarga ega xolos. To'g'ri, bir qarashda bunday nikoh bizdagi sovchilik yo'li bilan quriladigan oilaga o'hshab ketadi, lekin bizda zurriyod qoldirish, birga yashash talab etiladi. Shuning uchun yigit va qiz bir-birlarini sevmagan bo'lsalarda, nikoh o'qilayotganda ularning rizochiliklari so'raladi, javob ijobiy bo'lgach, ular chimildiqqa kiritiladi. Godvin tipidagi nikohlar ko'pincha O'zbekistonda keksalar o'rtasida rasmiylashtiriladi. Masalan, kampiridan uning qazosi tufayli juda bo'lgan otaxon o'zaro kelishuv natijasida o'zga bir beva ayolga uylanadi, ular o'rtasidagi munosabatlar o'zaro samimiyat, hurmat, qo'llab-quvvatlov, keksalikni bezashga yo'naltirilgan. Lekin bu oila o'zidan zurriyod qoldirish kabi haqiqiy oilaga xos funksiyalarning barchasini bajarmaydi. Bunday oila Islom dini arkonlariga ham mos bo'lib, bu ikki keksa odamning bir-birlari umrlarini

choʻzishga qaratilgan samimiy munosabatlari majmuidir.

Qoʻshxotinlilik ham alternativ nikoh turlaridan biri boʻlib, bunda bir erkak koʻpincha hufyona oʻz qonuniy nikohidagi ayoldan tashqari yana boshqasi bilan sharʼiy nikohda yashaydi. Qoʻshxotinlilik koʻproq Osiyo va Sharq mamlakatlari aholisiga xos deb hisoblansa-da, hozirda bunday oilalar hattoki, Rossiyada ham kuzatilmoqda. Lekin bunday oila turi qonunan man etilgan.

Oila energetikasi tushunchasi oʻz ichiga koʻplab jabhalarni xususan, oilaning tibbiy-biologik xususiyatlaridan tortib, uning psixologik mavjudligini belgilovchi omillar, ekologik shart-sharoitlardan boshlab, tiriklikning mezonlari boʻlmish ovqatlanish hamda har bir oila aʼzosining xatti-harakatlarining namoyon boʻlishigacha qamrab oldi. Oilaviy hayotning psixologik energetikasini tavsiflash uchun Satir “oilaning emotsional qozoni” tushunchasini ishlatadi, yaʼni, oila aʼzolarining kundalik muloqot, muomala jarayonlarini u goʻyoki “bir qozonda qaynovchilarning birgalikda yashashida namoyon boʻladigan hissiyotlar koʻzgiday” tasavvur etadi. Bu “qozonda”gi his-kechinmalar hayotning muayyan davrlarida oʻta joʻshqin va boy boʻlsa, boshqa bir davrda mazmunan tor yoki tarang ham boʻlishi mumkin. Oila aʼzolarining bir birlariga mehr-muhabbati, yaqinligi, hamkorligi maʼlum davrlarda kuchli ijobiy boʻlsa, boshqa davrda kimnidir kimdandir tobeligi bois yoki kimningdir qattiqqoʻlligi bois torroq, mazmunsizroq boʻlishi ham koʻzatiladi. Oilaviy munosabatlar tizimi – Satir taʼrifida oila aʼzolarining muayyan rollar doirasida u yoki bu holatlarda oʻzligini namoyon etishi yoki ijrosi emas, balki, bu har bir oilaga xos boʻlgan oʻzaro munosabatlar “xaritasi”dir. Masalan, biror oilaga yordam bermoqchi boʻlgan terapevtga ayni shu xarita kerak, chunki u real aʼzolarning real oʻzaro munosabatlarini boshqachasiga tasavvur etishi mushkul. Bu xaritaga ayni shu oila aʼzolaridan tashqari, ularning yaqinlarining taʼsiri ham kiradi. Masalan, agar erkak kishi oilada qandaydir ajrab qolgan boʻlib, xotini va farzandlari bilan yashagan taqdirda ham uning xotiniga boʻlgan real munosabatlariga boshqa uyda yashaydigan onasining taʼsiri boʻlsa, demak, oilaviy munosabatlar xaritasida

qaynonaning ta'siri ham albatta nazarda tutilishi shart. Yoki birinchi nikohidan ajralgan ayol sobiq erining farzandi bilan birga yashayotganligi bois, hamisha uni eslab turishi, bolasining istagiga ko'ra, sobiq eri bilan ko'rishib turishi, hattoki, moliyaviy jihatdan unga tobe ham bo'lishi mumkin. Bu, tabiiy, ayni paytda real oilaviy munosabatlarga ta'sir etmay qolmaydi.

Oilaning funksional xususiyatlari – bu oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning sifatiy taraflarini tavsiflaydi. Masalan,

- muloqot uslublari;
- har bir oilaga xos bo'lgan tartib-qoidalar;
- o'zaro muloqot jarayonida kommunikativ to'siqlarning mavjudlari (yo'qligi).

Satir o'zining psixoterapevtik tajribasidan kelib chiqqan holda oilaviy munosabatlar jarayonida ko'zga tashlanadigan muloqotning 5 xil uslubini ajratadiki, ulardan to'rttasini u samarasiz deb ataydi, bittasi yetarli darajada tajriba va bilimga ega bo'lgan yetuk muloqot uslubiga kiradi. Dastlabki to'rttasi odatda muomala jarayonida biror muammo yoki to'siqni yengishga, o'zini ataylab yaxshi ko'rsatishga, kimgadir yoqishga yoki aksincha, kimnidir nimagadir ayblashga, tanqid qilishga xizmat qiluvchi uslublardir. Masalan,

- Xushomadgo'ylik uslubi kimlargadir ataylab yoqish maqsadida barcha oila a'zolarining xatti-harakatlaridan andoza olish, o'zini yerga urib bo'lsa-da, o'zgalar bilan kelishib yashash, bu bilan o'zini hamisha yerga urishni nazarda tutadi.
- Ayblovchi uslub doimo kimnidir nimagadir o'rgataverish, tanqid va nazorat qilish, faqat o'zidan kuchli odam oldidagina biroz o'zini tortish bilan bog'liq kommunikativ harakatlarni o'z ichiga oladi. Birinchi va ikkinchi uslublar go'yoki bir birini to'ldiradi.
- Hisob-kitobli muomala uslubi shundayki, unga ko'ra odam hamisha va har qanday vaziyatda aniq, bexato harakatlar qilishga intiladi, chunki bunday odam adashmay, doimo “to'g'ri, benuqson” bo'lishga intiladi, shuning

uchun bunday insonning harakatlari doimo sun'iyday, his-tuyg'ulari esa mazmunsiz, doimo tazyiq ostiga olinganday bo'ladi.

- Chetlashtirilgan muomala uslubi o'zini nima qilib bo'lsa-da o'zgalardan uzoqda, muayyan masofada tutishga qaratilgan, odamoviday boshqalarning nazaridan ham, ularning ta'siridan ham o'zini tortadi (masalan, bizda odatda yangi kelinchak o'zini ana shunday tutadi).

- Yetuk, adaptiv muomala uslubida esa inson hamisha o'z oiladoshlari bilan to'g'ri, samimiy, ochiq munosabatlarga tayyor bo'ladi. Bunday odam o'zining barcha fazilatlarini bilgani va saqlagani holda boshqalarning ham shaxs ekanligini, individualligini unutmagan tarzda muloqotga kirishadi. U gapirishni ham maromida eplaydi, o'zgalarni tinglashni ham biladi, shu sababli, unga qandaydir kommunikativ to'siqlar xatarli emas.

Psixoterapevtik amaliyotda Satir ham Karl Rojers kabi barcha muomala uslublarini tahlil qilar ekan, bir insonning boshqa bir insonni tinglay olishiga alohida e'tibor qaratadi. Asosiy maqsad shundan iboratki, har bir oila a'zosini o'z tartib-qoidalarini buzmagani holda muomala madaniyatiga o'rgatishdir. Masalan, oilaning muayyan tartib qoidalariga quyidagilar kirishi mumkin: "Yakshanba kunlari hamma to'planib, birga tushlik qilishadi", "Otamiz uxlagan paytda unga hech kim xalaqit bermaydi", "Maktab xarajatlari uchun bolalarga muayyan miqdorda pul beriladi" va hokazo.

Ochiq tartib-qoidalardan tashqari, har bir oilaning yashirin qoidalari ham mavjudki, ular ham oilaviy munosabatlarning yaxshi bo'lishida katta rol o'ynaydi. Odatda bunday qoidalar muayyan mavzularning oila davrasida ko'tarilmasligi yoki ma'lum tarzda his-kechinmalarning namoyon etimasligida ko'rinadi. Masalan, otasining oldingi nikohdan farzandlari borligi mavzusi, oilada nogiron borligi, bolaning qandaydir falokat tufayli ruhan yoki jismonan dardman bo'lib qolgani, kimnidir qamalib ketganligi, ota va onaning birga yotmayotganligi, otaning spirtli ichimliklarga ruju qo'yganligi kabilar odatda oila a'zolari to'plangan paytda ochiq muhokama qilinmaydi. Chunki rasman taomil bo'yicha bunday holatlarga bevosita

bolalarning aloqasi ham, aybi ham bo‘lmaydi, shuning uchun ularda shu kabi salbiy tajriba paydo bo‘lishidan saqlagan tarzda bu kabi holatlar muhokama qilinmaydi.

Oilaning chegarasi va hududi deyilganda, odatda oilaning boshqa sotsiomadaniy muhit vakillari bilan aloqasi, ularga bog‘liqligi darajasi nazarda tutiladi. Satirning fikricha, shunday oilalar ham bo‘ladiki, ular boshqalar bilan deyarli muloqotga kirmaydi, bu oilaga darvozadan ham, devoridan oshib ham kirib bo‘lmaydi, u go‘yoki o‘z qobig‘iga o‘ralib olganday, o‘z navbatida u boshqa oilalarga ham qiziqmaydi, oilaviy tantanalarga yaqin qo‘shnilarni ham chaqirmaydi, o‘qishi yoki ishxonasini hisobga olmaganida, boshqa ijtimoiy muassasalarga, masalan, teatr, kino, klublarga ham bormaydi. Odatda bunday “yopiq” turdagi oilalar unchalik inoq-ittifoq ham yashamaydi. Bizning sharoitimizda mahalla-kuyning tadbirlari ham ularsiz o‘tadi. Shuning uchun ochiq turdagi, keng muloqotlarga asoslangan oila baxtli va mustahkam hisoblanadi. Bu oilalarning dahlsizligiga ham zarar yetkazmaydi.

Taniqli amerikalik oilaviy psixoterapevt Salvador Minuxin ham o‘ziga xos konsepsiyaning asoschisidir. (Minuxin S., Fishman Ch., 1998). Uning fikricha, oila – murakkab tuzilishga ega bo‘lib, tarkibiga ayrim alohida individlarni, bir qator tizimlarni qamrab oladi. Ichki tuzilmalar koalitsiyalarga birlashib, oila doirasida turli hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, har qanday oila boshqa o‘ziga o‘xshash tuzilmalar bilan murakkab munosabatlarni o‘rnatadiki, bu tashqi tizimlar ba’zan oilani qo‘llab-quvvatlash vazifasini ham bajaradi.

Oila – eng avvalo rivojlanuvchi tuzilma bo‘lib, unga yoshga oid qonuniyatlar xosdir. Chunki oila a’zolari yillar o‘tgani sari rivojlanadi, yetuklikka erishadi, qariydi, shu bois ham oila doimiy o‘zgarish va rivojlanishlarni boshidan kechiradi.

Oilaning tarkibiy tuzilmasi ham ilmiy jihatdan muhim bo‘lib, uni eng avvalo alohida individlar tashkil etadi. Alohida individ o‘z xohish-istaklari, ehtiyojlari, motivatsiyasi, hayotiy maqsad-muddaolariga ega dastlabki avtonom birlikdir. Oila a’zolari esa oilaga kirishib, qo‘shilib ketganligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq

qiladi. Oilaning ayrim a'zolari butun vujudi, borlig'i bilan oilaviy hayotga uyg'unlashga ketgan bo'lsa, boshqalari uning tarkibiga boshqa tashqi tuzilmalar hisobidan qo'shiladi. Masalan, uy bekasi oilaning birinchisi bo'lsa, yangi tushgan kelinchak ikkinchi xil oila a'zosini tashkil etadi. Lekin barcha oila a'zolari uning psixologik muhitini, undagi samimiyatni barqaror etishga o'z hissasini qo'shadi, faqat birinchisi oila manfaatlarini ichkaridan turib, faqat yaxshilikni, barqarorlikni o'ylab ish tutsa, boshqalari tashqaridan turli ma'lumotlar, "o'ziga xos havo" olib kirish yo'li bilan oila muhitini muvofiqlashtiradi.

Er-xotin tizimi oiladagi er va xotindan iborat bo'ladi. Erkak va ayol qovishuvidan boshlanadigan bu tuzilma aslida butunlay bir-biridan farq qiluvchi qadriyatlar, qarashlar, kutishlar va e'tiqodlardan tarkib topadiki, agar ularning har biri o'zaro muloqot jarayonida bir-birlarini bilgani sari o'z qarashlari, xatti-harakat me'yorlari, odat va qiliqlaridan qisman bo'lsa-da, voz kechmas ekan, oilaviy birlik ro'y bermaydi. Bu juda katta psixologik jarayon hisoblanib, uning natijasi o'laroq oilada er-xotinning bir-biriga adaptatsiyasi, moslashuvi ro'y berishi mumkin. Yangicha "qovishuv", bir-birini identifikatsiya qilish, o'xshashliklar jarayoni adaptatsiyaning muhim natijasi o'laroq, bunday bir-biriga yaqinlashish, "o'xshashlik va uyg'unlikning" paydo bo'lishi yillar davomida sayqal topib boradi. Lazarev va Rage degan olimlarning qayd etishlaricha, odam boshidan kechirishi mumkin bo'lgan stressor g'amlardan eng kuchlisi turmush o'rtog'idan judo bo'lish hisoblanadi, chunki ular yillar mobaynida bir-birlariga juda ko'nikib, kirishib ketgan bo'ladi. Ayni shu tuzilmadagi har qanday evrilishlar, nizolar va qiyinchiliklar yaxlit oilaning barcha a'zolariga birday ta'sir etadi.

Ota-onalar tuzilmasi har doim ham er-xotinlikni nazarda tutmaydi, zero, uni yolg'iz momo, xola yoki to'ng'ich farzand ham tashkil etishi mumkin. Shuning uchun terapevtik muolajalarda yoki maslahatlarda ota-onalar tuzilmasini aynan kim tashkil etishini bilish ahamiyatlidir. Ota-onalar eng avvalo oilaning xavfsizligi, unda samimiyat muhitining bo'lishi, tarbiya jarayonlarining qanday kechishiga javobgardir. Ular shu oiladagi barcha farzandlarning kelajagini, kerak bo'lsa, juda

yaxshi kamol topishi uchun o‘z bilim va tajribasini safarbar etadigan insonlardir. Aka-opa-ukalar tuzilmasi – oilada farzandlarning hayotni o‘rganishlari, birbirlarini tushunishlari ba‘zan tortishib, ba‘zan do‘stona muomalani yo‘lga qo‘yishlari juda muhimdir. Odatda oilada shakllangan va sayqal topgan aka-uka, opa-singilchilik munosabatlari keyinchalik do‘stlar, hamkasblar, raqiblar bilan bo‘ladigan murakkab o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun zarur bo‘ladi.

Muammoli oilalar deb, Minuxin oila ichidagi mavjud tuzilmalar o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishini tushunadi. Masalan, “pa-de-de” tipidagi oila (fransuzcha pas de deux – ikki kishi raqsi ma’nosini bildiradi) odatda faqat ikki kishidan iborat bo‘lib, bunday oilada farzand bo‘lmaydi. Yoki farzandlari allaqachon “uchirma” qilingan bo‘lib, ota-ona xonadonini tark etgan bo‘ladi. Bu kabi oilalardagi o‘zaro munosabatlar anchagina tarang bo‘lib, aksariyat holatlarda bunday kechinmalar vaqtincha xarakterga egadir. Unda naslni davom ettirish, bola tarbiyasi kabi muammolarning mavjudligi er-xotin munosabatlariga rahna soladi.

Ko‘p farzandli oila (“choriq” tipli oila) munosabatlar tizimi serqirra bo‘lgan oiladir, unda ba‘zan, farzandlarning to‘ng‘ichi ota-onalarday yuqori pog‘onaga ham ko‘tarilib qoladi. Bunday oiladagi munosabatlarning yaxshi bo‘lishi uchun ota-ona har bir oila a‘zosining vazifalari va oiladagi maqomlarini aniq tasavvur qilib, bo‘lib berishi, to‘ng‘ich bola bilan kichiklar o‘rtasidagi muomala qoidalarini bolalikdan bir maromda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi talab etiladi. Bu yerda ota-ona tuzilmasi, ya’ni, ota-onaning mavqei, obro‘si kuchli va yetakchi bo‘lishi shart.

Distant oila yoki “akkordeon” tipidagi oilada a‘zolaridan kimdir, bu ko‘p hollarda ota – u yoki bu sababga ko‘ra oila a‘zolari bilan kam ko‘rishadi (uzoq muddatli safardagi dengizchi, harbiy xizmatchi, geolog, neft qazuvchi kabi). Ota bunday holatlarda o‘zaro muomala jarayonlarida yo jismonan mavjud shaxs sifatida yoki ramziy tarzda ota sifatida ishtirok etadi. Oilada er-xotinlik aloqalari ham, ota va bola munosabatlari ham bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ham aziyat chekib turadi. Gohida oilada go‘yoki yashirin qolipda ajrim turganday bo‘ladi. Lekin ayni shu holat ko‘pincha distant oilaning ajrim bo‘lgan oiladan afzal ekanligini

ko'rsatadi.

Beqaror oila tarkiban ham, turar-joy, yashash joyi masalasida ham o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, ayrim ayollar birinchi nikohidan ajralganidan so'ng tez-tez erkaklarni almashtiradi, toki ko'ngliga ma'qul bo'lgan insonni topmaguncha turlicha munosabatlar tizimida bo'ladi. Bu farzandlar tomonidan yaxshi qabul qilinmaydi, ona bilan bolalar munosabatlari hamisha taran turadi. Shunga o'xshash holatlar tez-tez turar joyini almashtirishga moyil oilaga ham xosdir. Munosabatlar tarangligi nafaqat shu oilaning ichida, balki yangi turar joyga kelib yangi tengdosh o'rtoqlar va sinfdoshlar orttiradigan bolalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Noto'liq oila – ba'zan turmush o'rtog'idan birining o'limi tufayli judolikka mahkum etiganlar oilasida ham o'ziga xos munosabatlar shakllangan bo'lib, ularda go'yoki "arvoh" oilaviy jarayonlarning barchasida ishtirok etayotganga o'xshaydi. Ayniqsa, sharq xalqlarida marhumning ruhini hurmat qilib, barcha oilaviy tadbir va marosimlarda ularning ruhlarini shod etuvchi duolar o'qiladi, ular yaxshi gaplar bilan eslanadi, duolar mavjud bo'ladi. Bu farzandlar tarbiyasida ham ijobiy, ham salbiy rol o'ynaydi.

Shunday qilib, Minuxin chizmasida oilaviy o'zaro aloqalar turlicha munosabatlar tizimi shaklida tasavvur etiladi.

Amerikalik tadqiqotchi Myurrey Bouen (1913-1990) – AQShda XX asrning boshlarida boshlangan oilani himoya qilish harakatining asoschilaridan bo'lgan, ushbu harakatdan ko'zlangan maqsad – oilani alohida tadqiqotlar ob'ektiga aylantirish, shu orqali uning inson salomatligidagi benazir roldan foydalanish, hattoki, ruhan bemor bo'lganlarni davolashda oilaning imkoniyatlaridan foydalanish g'oyasini targ'ib etishdan iboratdir. Bouen fikricha, inson o'z umrini o'tkazadigan ijtimoiy guruhlardan eng muhimi – bu oiladir. Shu bois ham har bir shaxsni o'rganish uning oilasini o'rganishdan boshlanmog'i lozim. Ammo, ta'kidlaydi, muallif, inson qanchalik biologik tuzilmali, hissiyotlarga boy emotsional tizimga ega bo'lmasin, u sekin-asta o'z oilasi qobig'idan ajralib, shaxsiy xususiyatlarda boshqalardan o'zgacha, ajralib, differensiallashib boravedi.

Ana shunday tafovutlanish, ya'ni, hayoti mobaynida o'ziga xos xislatlar egasi bo'lish, ota-onasi va yaqinlaridan farqlanuvchi sifatlarga ega bo'lib borish darajasi har bir insonda turlicha sodir bo'ladi. Har bir shaxsning hayotdagi insoniy burchlaridan biri ham ayni shu "alohidalikka, boshqachalikka" intilish va o'zgaralar bilan hamjihatlikda yashash ko'nikmalarini orttirib borishdir. Bouen turli odamlarda testlar o'tkazib, ana shu farqlilikning shkalasini yaratdi. Unga ko'ra, shkalaning pastida joylashganlar (0 dan 25 ballgacha olganlar) odatda xavotirli hayot kechiradi va ko'pincha o'zgaralarga tobe bo'lmaslikka intiladi, turli vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini yaxshi bilmaydi, nisbatan sokin va turg'un turmush tarzini boshdan kechiradi, biror xavf yoki mushkulotni sezib qolsa, yolg'izlikni, hech kimga ko'rinmaslikni afzal ko'radi. Bunday mijozlar bilan ishlash texnikasi shunga bog'liqki, ularni eng avvalo turli vaziyatlarda turlicha harakat qilish modellariga, ongi va aqli bilan bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni tahlil qilishga o'rgatishdan iboratdir. Uning aksi bo'lgan, farqlar shkalasida yuqori ballarga ega bo'lganlar hamisha ko'pchilik ichida yuradi, ular bilan hamkorlik darajasi yuqori bo'lib, har qanday mushkul vaziyatlarda ham o'zini qo'lga olib, muammoni yechishning yo'llarini muvaffaqiyat bilan topadi. Uning munosabatlardagi egiluvchanligi shu qadar samaraliki, u kerak bo'lsa, odamlar bilan til topishish uchun o'z individualligidan ham voz kechib, odamlarga kirishib keta oladi, turli stress holatlarda iroda kuchini ishga solib, vaziyatni yengib chiqa oladi.

Bouen oiladagi o'zaro munosabatlar tizimini tasavvur qilish uchun fanga "emotsional uchburchaklik" tushunchasini kiritdi. Unga ko'ra, oila tizimini, uning poydevorini tashkil etuvchi asosan uch inson yoki sub'ekt bo'ladiki, boshqa munosabatlar ularning vaziyatni nazorat qilishlari, u yoki bu vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishlariga bevosita bog'liqdir. Agar oila faqat diada tipli o'zaro munosabatlargagina tayangan bo'lsa, xavfli, tarang vaziyatlarda ular o'rtasidagi munosabatlarning salbiy tomonga o'tib ketish ehtimoli yuqori bo'ladi, ya'ni, masalan, eri bilan urushib qolgan xotin uchinchi himoyachini izlaydi. Mobodo

oilada yana uchinchi shaxs, masalan, farzand bo'lsa, bu taranglikning kuchi u qadar sezilmaydi. Agar oilada bitta emas, bir necha farzand bo'lsa, ulardan biri ota-onaga qo'shilib, o'sha emotsional uchburchakni tashkil etadi, ayniqsa, o'smirlik davri qiyinchiliklarini boshidan kechirayotgan boshqa oila a'zosini tarbiyalashda ular uch kishi bo'lib, unga yordam qo'lini cho'zishlari mumkin bo'ladi. Bouen turli toifali muammoli oilalarni tahlil etib, ulardagi ziddiyatlarning asl sababi – ana shu kabi emotsional uchburchaklikning hosil bo'la olmaganligida, deb xulosa qiladi va shu nuqtai nazardan oilalar tipini quyidagilarga ajratadi:

- Er va xotin uzoq vaqt mobaynida ham bir-biriga ko'nika olmayotgan, munosabatlarini oydinlashtira olmagan oila turi. Ular emotsional uchburchak doirasida o'zaro munosabatlarda bir-birlarini ayblash, kamchiliklarini topish bilan ovora bo'ladi, lekin munosabatlariga sira bolalarni aralashtirmaydi. Bouennning fikricha, agar shunday tarang munosabatlarga farzand aralashsa, uchalasi o'rtasida yaxshi, iliq munosabatlar vujudga kelsa, bunday oila mustahkam bo'lishi mumkin. Aks holda, ota-onadan ayri ravishda bola yashashi, rivojlanishi mumkin, hattoki, uning psixikasiga bunday kemptiklik unchalik zarar yetmasligi ham mumkin, lekin oila oiladay bo'lmaydi.

- Ikkinchi toifa oilada a'zolardan biri to'laligicha boshqasiga tobe bo'lib oladi, o'zidagi avtonomiyadan ataylab voz kechadi. Natijada bunday oilada ikkita "yolg'on, yashirin "Men"lar paydo bo'ladi, bir shaxs ikkinchisi ustidan to'la hukmronlik qila boshlaydi. Bunday nikohlar odatda mustahkam bo'lishiga qaramay, uni tashkil etuvchilardan biri – tobe "Men" turli psixosomatik va ruhiy kasalliklarga chalinib boradi, farzandlar ham shu munosabatlarga ko'nikib boraveradi. Aytish joizki, o'zbek oilalari orasida ayni mana shu toifa oilalar ko'p.

- Uchinchi toifali oilada o'zaro munosabatlar bir maromda kechaveradi, lekin oilaning mut'e, tobe a'zosi tobora bolalarga bog'lanib, o'zidagi kamchiliklarni, xavotir va qo'rquvni bora-bora bolalarga yuklaydigan, ularni kerak bo'lsa, ayblashga o'rganib qoladi. Bu ba'zan oilaviy nizolarga sabab bo'lishim mumkin. Masalan, agar bola yo nogiron, yoki yagona, erka farzand bo'lsa, barcha

nuqsonlar uning shu maqomiga bog'liq tarzda namoyon etilaveradi, onaning kamchiligi bolaning nochorligi yoki erkalatib yuborganlik niqobi ostida yashiriladi. Boshqa bolalarga xos bo'lgan u yoki bu muammo ham ayni shu bir bola tufayli paydo bo'lganday tasavvur etiladi. Bouen amalga oshirgan tahlillar Amerika muhitidan olinganday tuyulsa-da, oila universal ijtimoiy institut sifatida barcha hududlarda ham umumiy, ham hududiy qonuniyatlarga bo'ysungani sababli, yuqorida qayd etilgan holatlar va oila tiplari bizda ham mavjud. Shuning uchun ham biz misol tariqasida bir nechta nazariy hamda amaliy yondoshuvlarni ko'rib chiqdik. O'zbekistondagi oilalarning milliy o'ziga xosligi bo'lishiga qaramay, insoniyat taraqqiyoti mobaynida shakllangan ijtimoiy institut sifatida unda ham universal, umummilliy jihatlar va ular bo'ysunadigan qonuniyatlarning mavjudligi hech kimga sir emas.

1.2 Oilaviy ijtimoiylashuv jarayonida bola o'zini-o'zi anglashini o'rganish masalasi.

Xar qanday davrda ham jamiyat va davlat aholi sonining bir maromda o'sib borishi, muayyan an'analar va muqaddas udumlarning saqlanib, avloddan-avlodga yetkazilib turilishidan manfaatdor bo'lgan. Buyuk rus psixologi A.N.Leontev avlodlararo muloqotning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini o'rganib, ilk asarlaridan birida agar shunday muloqot bo'lmaganida, taraqqiyotning o'zi ham mutloq bo'lmas edi, deb ta'kidlagan. Bu vazifani bajarishda jamiyatning muhim bo'lagi bo'lmish oilaning roli kattadir.

Demak, oila ijtimoiy institut sifatida eng avvalo tug'ilish orqali aholining ma'lum miqdorda muttasil o'sib borishi, odamlar o'rtasida migratsiya, ya'ni u yerdan bu yerga ko'chib turish yoki o'lim okibatida kamayib boradigan miqdorini to'ldirish vazifasini bajaradi. Chunki ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanish uchun mehnat resurslari va ishchi kuchining yangilanib borishidan jamiyat ham, odamlar ham manfaatdordir.

Bundan tashqari, har bir jamiyatning betakror qadriyatlari, o'lmas merosi, avloddan avlodga o'tib boradigan an'analari bo'ladi. Fuqarolik holatlari, madaniy o'sish, ma'naviy yuksalishga xizmat qiluvchi qadriyatlarning saqlanib kelayotganligi ham oila tufaylidir. Masalan, shunday oilalar sulolasi borki, ular asrlar osha u yoki bu muqaddas qadriyatlarni kasb-kori, turmush tarzi orqali saqlab keladi (rassomchilik, san'atshunoslik, hunarmandchilik, gulchilik, kulolchilik, ilmiy meroslar, agrar sohada va h-zo).

Umuman odamlar jamiyatining saqlanib qolishida ham oila ayrim alohida olingan shaxs bilan yaxlit jamiyat o'rtasida o'ziga xos "bufer" – ko'prik rolini o'ynab kelmoqda. Zero, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab, avloddan-avlodga yetkazishda davlat va jamiyatdagi ta'lim muassasalari, madaniyat o'choqlarining ham muayyan roli bor, lekin ularda o'zgarishlar tez-tez ro'y bergani sababli, ularning avlodlararo muqaddas sanalib kelinayotgan qadriyatlarni asrab-avaylashdagi roli oilachalik yuqori bo'lolmaydi. Shuning uchun davlat oilaning mustahkam va farovonligi, odamlarning unda tinchlik, xotirjamlikda

yashashlaridan hamisha manfaatdor ekanligi sababli ham muayyan qonunlar va yuridik tizimni ushlab turadiki, ular orqali nafaqat nikohning o'zi, balki ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni ham muvofiqlashtirib boradi. O'zbekistonda yosh oilalarga ko'rsatilayotgan muruvvatlar, bola tug'ilishi va katta bo'lishi uchun suyunchi puli, nafaqalarning belgilanishi, onalik va bolalikning ijtimoiy muhofaza qilinayotganligi, ota yoki ona farzand oldida o'z burchini bajarmagan taqdirda moddiy, ma'naviy, hatto, jinoiy sanksiyalar orqali jazolanishi ushbu noyob maskanni mustahkamlash, u orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni keyingi avlodlar uchun saqlash vazifasini bardavom etishdan iboratdir. Tahlil etiladigan bo'lsa, odamlar o'rtasida ro'y beradigan ko'plab munosabatlar orasida faqat oilaviy munosabatlarga davlat tomonidan shunchalik ardoqlanadi, masalan, sevgi-muhabbat, do'st-yoronlik, odamlar urtasidagi oldi-sotti, tadbirkorlik. mehnat munosabatlariga davlat deyarli aralashmaydi.

Demak, oilaning jamiyat oldidagi vazifalari deganda, uning avvalo oila a'zolarining muayyan ehtiyojlarini qondirish hamda shu orqali davlat va jamiyatning ehtiyoj va manfaatlariga xizmat qilish qobiliyati tushuniladi. Masalan, ota ishlab chikarish korxonasida ertadan kechgacha mehnat qilar ekan, bu bilan u nafaqat o'zining yeb-ichish, dam olish, turli xaridlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan ehtiyojini qondiradi, balki oila a'zolarini, birinchi navbatda farzandlari, uy bekasi bo'lsa, turmush o'rtog'ining ehtiyojlarini, qolaversa, u yoki bu korxonadagi rentabellikning oshishi, iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori bo'lishiga, shu orqali o'z Vatanida ushbu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Mustaqillik yillarida jonajon yurtimiz O'zbekistonda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustivor yo'nalishi sifatida e'tibor etildi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 65-moddasida e'tirof etilganidek, bizda "Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza etiladi". Shuningdek, Bosh qomusimizning 64-moddasida " davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini

rag‘batlantiradi”. Demak, O‘zbekistonda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, ularning har tomonlama kamol topishi va farovonligi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat tomonidan kafolatlanadi. Shu o‘rinda oila borasida davlat siyosatining shu tarzda qonunan kafolatlangan, maqsadga yo‘naltirilgan tarzda olib borilishi zarurati nimalarga asoslanadi, degan o‘rinli savol paydo bo‘ladi. Davlat tomonidan oila siyosati, uning bazasini mustahkamlash siyosatining olib borilmasligi ushbu noyob ijtimoiy institutning boshqa ijtimoiy institutlar qatoridan munosib o‘rin ololmasligiga olib kelishi va buning oqibat sifatida oila va nikoh munosabatlari bo‘hronga uchrashi, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga zarba berilish, turli muammolar ko‘payib, yosh avlod tarbiyasining dastlabki o‘chog‘ida ma‘naviy inqirozlar kuzatilishi mumkin. mumkin. Shuning uchun muttasil taraqqiyot va xalq farovonligiga erishish yo‘lidan sobit qadamlik bilan boradaigan jamiyat va undagi davlat tizimlari oilaning mustahkam va barqaror bo‘lishidan, avlodlararo vorislik yo‘qolib ketmasligidan manfaatdordir.

Shunday qilib, Oila siyosati – bu davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, NNT larining shaxs va jamiyat manfaatiga mos keladigan oila deb atalmish er-xotin va ularning ikki va undan ortiq farzandlaridan iborat ijtimoiy tuzilmani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan faoliyatidir. Bu oilaviy turmush tarzini barqarorlashtirish, har bir insonning o‘z oilasi va shajarasi bo‘lishi istagini ro‘yobga chiqarish uchun aholini qo‘llab-quvvatlash siyosatidir. Uning tom ma‘nosi shundaki, davlat va jamiyat to‘liq oilalarning imkon darajasida ko‘p bo‘lishidan, unda avlodlararo vorislik, shajaralarning bardavomligi, yoshlarning oila va nikohni qadriyat sifatida e‘tirof etishidan yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi ta‘minlanishiga ishonchini bildiradi.

E‘tirof etish joizki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda oila institutini amalda mustahkamlash borasida talay ijobiy ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo oila va nikoh munosabatlarini takomillashtirishning qonuniy bazasi yaratildi. 1998 yilda qabul qilingan “Oila Kodeksi”da ushbu munosabatlarning barcha jabhalari

reglamentatsiya qilingan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan boshqa qator Kodeks va qonunlarda ham bevosita oila a‘zolarining, jumladan, xotin-qizlar va bolalarning manfaatlari himoya qilingan. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida oila a‘zolarining mulkiy munosabatlari, ularning ulushlari, merosxo‘rlik, vorislik huquqlari;
- O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida farzandi bor ayollarga tadbiq etiladigan imtiyozlar, fuqaro sifatida barcha oila a‘zolarining mehnat qilish huquqlari;
- O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksida mulk sifatida uy-joyga ega bo‘lish huquqlari;
- “Fuqarolarning davlat nafaqa ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonunda oilaning kattalari hamda mehnat yoki salomatligi tufayli nafaqaxo‘r bo‘lganlarning ijtimoiy himoyasi;
- “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida”gi Qonun (1998) da ko‘p bolali, nogiron bolasi bor bo‘lgan oilalarga beriladigan imtiyozlar, kvotalarni taqdim etish tartiblari va h-zo;
- “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonunda (1995 y.) oilada xotin-qizlarning salomatligi, jumladan, reproduktiv salomatlikning davlat tomonidan muhofaza etilishi tartiblari;
- “Xotin-qizlarga beriladigan qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida”gi Qonunda farzandi bor hamda og‘ir mehnat sharoitida ishlaydigan ayollarga beriladigan imtiyoz va qo‘shimcha imkoniyatlar borasidagi qoidalar o‘z ifodasini topgan.

Qonunlarning amaldagi ijrosi mustaqillik yillarida qabul qilingan va amaliyotga joriy etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o‘nlab qarorlari asosida ta‘minlanadi, ularda aynan oilaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, kam ta‘minlangan oilalar sonining oila a‘zolari bandligini ta‘minlash, mehnat huquqlarining kafolatlanishi orqali kamaytirish choralari

belgilangan. 1994 yildan buyon qabul qilinayotgan va amalda muvaffaqiyat bilan ijrosi ta'minlanayotgan Davlat dasturlarida ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza etilishi o'z aksini topmoqda. Bularning eng muhimlari:

- Prezidentimizning “O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (25 may 2004 y.) va Vazirlar Mahkamasining Farmon ijrosini ta'minlash bo'yicha 299-chi sonli qarori;

- “Fuqarolarga xizmat ko‘rsatish uchun birvaqtlik yordam pullari to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining qarori(2002 yil);

- “Oliy o‘quv yurtlarida to‘lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun umumta’lim kreditlarini taqdim etish to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining qarori (2001 yil);

- “Bolalik oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining qarori (1996 yil);

- “Ishlayotgan nafaqaxo‘rlarga nafaqalarni to‘lash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (1995);

- “Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni tashkil qilish masalalari haqida” Vazirlar Mahkamasining qarori (1994 yil);

- “Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2007 yil 18 maydagi Farmoni va boshqa o‘nlab Farmon, normativ hujjatlar va qarorlarni keltirish mumkin.

Yurtimizda oilani mustahkamlash borasidagi davlat siyosatining afzalligi shundaki, davlat oilaning o‘ziga xos suveren tuzilma sifatida qadrlaydi, uning ichki ishlariga aralashmaydi, lekin u yoki bu sabablarga ko‘ra, oilada ba’zi qiyinchiliklar paydo bo‘lgan bo‘lsa, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, mahalla qo‘mitalari, unda faoliyat yuritayotgan jamoatchilik komissiyalariga murojaat qilib orqali fuqarolar o‘z manqaatlarini himoya qilishlari va davlatning madadiga

erishishlari mumkin. Ikinchi tomondan, oila ikki oilaning, unda tarbiyalanayotgan ikki yoshning ixtiyoriy kelishuvi, tanlovidan hosil bo'lgan ittifoq bo'lgani uchun ham ushbu jarayonlarga ham aralashmaydi, chunki bu shaxsiy muammo. Lekin davlat fuqarolarning "erkin nikohlari"ga, xohlagan paytda xohlagan inson bilan o'zi bilganicha nikohga kirib yoki kirmay yashashiga befarq bo'la olmaydi. Chunki bu jamiyatning ahloqiy tomirlarini kesishi mumkin. Shuning uchun turli xil oilani qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar borki, ular oila-nikoh borasidagi nohaqliklar bo'lgan sharoitda, oilada bir yoki bir necha a'zoning insoniy manfaatlari tahqirlangan sharoitda, farzandlar ota-onasining nojo'ya harakatlari tufayli ko'chada qolib xavfi paydo bo'lganda o'zining jamoatchilik tashkilotlar, jumladan, xotin-qizlar komissiyalari, yarashtirish komissiyalari, "Oila" markazlari, oqsoqollar orqali bu kabi salbiy holatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'radi, kerak bo'lsa, ularni xukumat dasturlari yoki qarorlari asosida mustahkamlaydi. Oilaning mustahkam va barqaror bo'lishi uning a'zolari salomatligiga, ota-onalikka psixologik jihatdan tayyorligiga bevosita bog'liq bo'lgani uchun ham mamlakatimizda bu borada aniq mexanizmlar ishga solingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi 365-sonli qarorining amalda joriy etilishi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'qitilayotgan "Oila psixologiyasi" kurslarining uzluksiz ta'lim tizimiga kiritilganligi kabilarning davlat tomonidan moliyalashtirilayotganligi ham fikrimizning dalilidir.

1.3. Bolaning o‘zini anglashida ona shaxsining roli

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-demografik ahvoldning yana bir muhim xususiyati – jamiyatning asosi bo‘lgan kuchli oila tizimidir. O‘zbekistonda nikohdan o‘tish darajasi yuqori va eng muhimi, oilalarning buzilishi dunyo bo‘yicha eng past darajada. Oila bizning xalqimiz uchun millatning ko‘p asrlik an‘analari va ruhiyatiga mos bo‘lgan g‘oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir. Respublikada mavjud oilalar soni bugungi kunda 5 milliondan ziyod bo‘lib, ularning aksariyati bo‘linmagan, ko‘p avlodli, turli avlod vakillari birga yashaydigan va birga xo‘jalik yuritadigan xonadonlardir. Oilaning bunday o‘zimizga xos bo‘lgan shakli bolalarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy ma‘naviy qadriyatlardan, an‘analardan bahramand qilish, shu bilan birga milliy an‘analarimizning saqlanishi, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratdi. Xuddi ana shunday oilalarda odamlar bolalik chog‘laridanoq mehnatsevarlikni, kattalarga hurmatni, bilim egallashga intilishni, tug‘ilib o‘sgan yurti, qishlog‘i, shahri, yaxlit Vatanini sevishni o‘rganadilar.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy istiqboliga bevosita aloqador ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – O‘zbekiston Respublikasida huquqiy-demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida jamiyatning negizi hisoblangan oilalar borasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi, yo‘nalishlari va tamoyillarini belgilash orqali oilaga yo‘naltirilgan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-mafkuraviy, iqtisodiy faoliyatning dasturini va oila institutini milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvofiqligida mustaqhklamlashning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Respublikamizda 90-chi yillardayoq oilalarning ko‘p bolalik shaklidan o‘rtacha bolalik shakliga o‘tish ro‘y berayotganligi bashorat qilingan edi. Chunki 1998-1999 yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda shahar oilalarining 75-76, qishloq oilalarining 53-54 foizi oilada farzand tug‘ilishini rejalashtirayotganligi to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lingan edi. Lekin muhtaram Prezidentimizning “Sog‘lom avlod yili” davlat dasturi asosida “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” ijtimoiy harakatini takmomillashtirishga qaratilgan Davlat dasturidagi chora-tadbirlarning

belgilanganligi tufayli, ayni paytda oila va salomatlik sifatlari sogʻlom tugʻilgan bola va uni dunyoga keltirgan onaning holatiga bogʻliq ekanligini aholi tobora teranroq tushunib bormoqda va bu tushuncha aholining farzand koʻrishga nisbatan reproduktiv ustanovkalarida aks etmoqda.

Oilalar miqdorining ortib borishi oxirgi yillarda asosan yosh oilalar va nuklear tipli, yaʼni, er-xotin va ularning farzandlari alohida yashaydigan oilalar hisobiga sodir boʻlmoqda. Mavjud oilalarning salkam 50 foizi – bu nuklear oilalar, bir xonadonda bir necha alohida oilalar istiqomat qiladigan patriarxal oilalar jami oilalarning salkam **23,5** foizini tashkil etadi. Nuklear, yosh oilalarning aksariyati 9 yildan kam boʻlgan turmush tajribasiga ega boʻlganlar boʻlib, sodir boʻlayotgan nikohning barbod boʻlishi holatlari aynan shu kabi oilalarga toʻgʻri kelmoqda. Yaʼni, ilmiy izlanishlardan olingan maʼlumotlarga koʻra, 70 foizdan ortiq nikoh ajrimlari yosh oilaga toʻgʻri keladi.

Bundan tashqari, oila borasidagi yangi holat shuki, agar 90-chi yillarda migrantlar orasida ayollar koʻpchilikni tashkil etgan boʻlib, ular asosan turmushga chiqish oqibatida turar manzilini oʻzgartirgan boʻlsa (jami migrantlarning 53%), oxirgi yillarda aksincha erkaklarning mehnat migratsiyasi koʻlami ortib bormoqda va bu ham oilaning holati va sifatiga kuchli taʼsir etmoqda. Ushbu holat ham jiddiy tadqiqotlarni talab etadi.

Yaʼni, Oʻzbekiston aholisi katta demografik salohiyatga va qulay tarkibga ega. Oʻtgan oʻn yilliklarda tugʻilish darajasi nisbatan kamaydi, ammo mavjud koʻrsatkichlar ham bu salohiyat va tarkib muayyan davr oraligʻidagina saqlanib qolishini koʻrsatadi. Oʻzbekiston aholisining 37 foizini 16 yoshgacha boʻlgan bolalar tashkil etadi, aholining umumiy tarkibida mehnatga yaroqli aholi ulushining nisbatan pastligi va Oʻzbekistondagi demografik vaziyatning boshqa xususiyatlari bozor munosabatlariga oʻtish davrida aholini faol ijtimoiy muhofaza qilishni taqozo etadi. Shu bois, aholining ijtimoiy muhofazasi Oʻzbekiston siyosatining ustivor yoʻnalishlaridan biridir va bu tizim izchil takomillashtirib borilmoqda.

Bugungi kunda davlat ijtimoiy siyosatining muhim jabhalaridan biri aholi nufuzi, sifati masalasidir. Aholi sifati deganda, asosan aholi salomatligi darajasi, bolalar va onalar salomatligi darajasi, o'rtacha umr ko'rish darajasi, reproduktiv ustanovkalari, aholi ma'lumoti va ish bilan bandligi darajasi, milliy qadriyatlar va an'analar saqlanganligi kabi qator tavsiflar tushuniladi. Ya'ni, ta'kidlash joizki, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishshini jadallashtirishning muhim sharti aholi sifatini oshirishdir. Bunga erishish uchun davlatimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, lekin ularning samaradorligini oshirish ilmiy asoslangan milliy siyosat asosidagina ta'minlanishi mumkin. Bunda aniq ilmiy ma'lumotlar, jumladan, aholining tarkibi, stratifikatsion xususiyatlari, milliy tarkib albatta inobatga olinishi lozim.

O'zbekiston aholisining milliy tarkibi aholi o'rtasida amalga oshiriladigan siyosatning tarkibiy qismi bo'lib, davlatimizdagi demografik vaziyatni ilmiy – asosli baholash va uning monitoringini olib borishga asoslanadi.

Shunday qilib, mamlakat mustaqilligining 20 yili mobaynida amalga oshirilgan ishlar ana shu xalqning yaratuvchanlik yo'lida yagona g'oya atrofida birlashayotganligining isboti bo'lib, bu ishlarning ko'lami O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi e'tirofiga sabab bo'ldi. Oliy Majlisning 9 sessiyasida yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: “..yurtimizdagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonining ko'lami kengayib, samaradorligi oshib borgan sari jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va demokratlashtirish zarurati tobora ko'proq sezilmoqda”.ⁱⁱⁱ Demokratik ko'nikma va fuqarolik fazilatlari tarbiyalanadigan muhim maskanlardan biri – oiladir.

Oilaga doir bunday muammolarni o'rganish, ilmiy tadqiq qilish o'ta dolzarb xisoblanadi. Ayniqsa, muammolar yechimini topishda yurtimizdagi demografik vaziyat bilan bog'liq holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki mustaqillik yillaridagi mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlarida oila taraqqiyotining barcha jabhalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda va o'z-o'zidan yangicha demografik vaziyat yuzaga kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek

“Respublikadagi alohida demografik vaziyat o‘z ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini tanlab olish zarurligini belgilab beruvchi g‘oyat muhim xususiyatlardan biridir”.

Oila siyosatining uzoqni ko‘zlagan, istiqbolli yo‘nalishi jamiyatda oila institutini mustahkamlashga qaratilgandir. Bunday siyosatning fuqarolar tomonidan anglanishi ularda oila-nikoh munosabatlariga nisbatan cheksiz mas’uliyat hissini, o‘zi qurgan oilaga nisbatan g‘urur va uni qadrlash psixologiyasini shakllantiradi, albatta.

II BOB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA “MEN” KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARNI O’RGANISH.

2.1. Maktabgacha yoshdagi bolaning o’zi to’g’risidagi tasavvurlari shakllanishida referent guruh sifatida oilaning roli/

Ota-onalik munosabatlari va ota-ona bilan bola munosabatlari muammolari psixologik-pedagogik soxalarda turli omillar asosida tadqiq etiladi. Bu albatta, tabiiy jaraen,zero bola shaxsi shakllanishida bu omillarning o’rni beqiyos. Shaxs xususiyatlari shakllanishidagi omillardan biri bu bolaning rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyat (L.S.Выготskiy) bo’lib, bola shaxsi rivojida kattalar munosabatidagi determinant muammolar alohida ahamiyat kasb etilishi qayd etilgan.

Mazkur tadqiqotlarda A.A.Bodalev, A.Ya.Varga, V.V.Stolin, G.T.Xomentauskas, G.G.Filippova va ko’plab boshqa taniqli psixologlarning tadqiqot ishlari o’z o’rniga ega bo’lib, ularda kattalar (ota-ona, o’qituvchi, tarbiyachi)ning bola bo’lgan munosabati o’rganilgan. Bola bilan kattalarning munosabati o’rganilganda bolaga nisbatan bo’lgan turli xil xissietlar, munosabatlar jaraenidagi xulq stereotiplari, bola shaxsi, xarakteri va xatti-harakatlarini tushunish nazarda tutiladi. Bolaning emotsional farog’atiga kattalar munosabatining ta’siri o’rganilganda, psixologlar e’tibori kattalar va bolalar o’zaro aloqalarining bog’lanish xususiyatlariga yo’naltiriladi. Shunday bo’lsada, tan olish kerakki, kattalarning bolaga bo’lgan munosabatidagi asab-psixika statusi determinanti bugungi kunda yetarli darajada o’rganilmagan soxa xisoblanadi.

Tadqiqotimizning metodologik asosi sifatida bolaning xissiy kechinmalari tahlil ko’rsatkichlari bo’lmish, bolaning rivojlanish konsepsiyasining asosiy g’oyalari tashkil qilgan. Ushbu xissiet va emotsiyalar bolaning atrof-muhitni shaxsiy anglash funksiyasini bajaradi (L.S.Выготskiy, A.V.Zaporojets, D.B.Elkonin, V.V.Zenkovski va boshq.). Qadriyatlar tizimi, ustanovkalar, emotsional munosabatlar xarakteri, bola tomonidan katalarning qabul qilinishi, xulq-atvorda namoen bo’ladigan katta bilan bolaning o’zaro munosabati – bola

shaxsi rivojlanishida asosiy omillar xisoblanadi. A.N. Leontev (1977), A.R. Lurya (1980), D.B. Elkonin (1976) va ularning izdoshlari o'tkazgan ko'plab tadqiqotlarda bolaning psixik rivojlanishi kattalar bilan bo'ladigan aloqaning emotsional xususiyatlariga bog'liqligini isbotlagan.

E. Fromm esa, kattalarning bolaga bo'lgan munosabatida quyidagi xususiyatlarni: kattalarning bolaga nisbatan emotsional munosabatlari tizimida o'zgaruvchanlik va qarama-qarshilik alohida ifodalaydi.

Boulbi, Eynsvortlarning bolaning kattalarga bog'lanib qolish nazariyasida, ikki qarama-qarshi tendensiya mavjud: bolani onadan (kattadan) chetlashtiruvchi - duneni faol tanish, o'rganish xissi hamda xavfsizlik va qulaylik xissini beruvchi kattalarga talpinish tendensiyalari; bunda bog'liqlik qanchalik kuchli bo'lsa, bolaning harakati ham shunchalik kuchli bo'ladi. Bunda bola kattaning munosabatidagi hayrixoxlik orqali o'zini anglay boshlaydi, bu anglash ichki qoniqishni yuzaga keltirib, u orqali bola atrof-muxitni anglay boshlaydi. Ikkinchi tomondan bolaning o'ziga bo'lgan munosabati va o'zi haqidagi tasavvurlari kattalarga bo'lgan munosabatlarni, birinchi galda, onga bo'lgan munosabatlarni ifoda etadi. Bu munosabatlar kattalar va bolalar o'rtasida o'zaro bog'liqliklarni ifodalashda, tadqiq etilishida muxim omillardan biri sanaladi. Maktabgacha yosh davrdan kichik maktab yoshi davriga o'tish vaqtida ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatidagi qaysi omillar bolaning rivojlanishiga ta'sir etadi, hamda qanday xususiyatlar bunda tarkib topishi bugungi kunda yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Bog'cha yoshdagi bolaning rivojlanish xususiyatlarida ota-onalarning bola bo'lgan munosabatida xissiy emotsionallik omillarning qanday xususiyatlari determinant bo'lishini aniqlash va o'rganishdanpsixologiya sohasining dolzarb masalasiga ayyolangan. Shu maqsadda 6-10 yoshli asab-psixik statusga ega bo'lgan bolalarga ota-onalarining munosabatidagi psixologik jihatlari uning o'z-o'zini anglashda muxim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan oiladagi ota-ona va farzandalar munosabatlarida xissiy kechinmalarning psixologik xususiyatlarni hamda bog'cha yoshidagi bolalalarning o'z-o'zini anglashda ijtimoiy ta'sirlarni

tadqiq qilish asosiy vazifalardan biriga aylangan. Ota-onaning bola bilan o‘zaro munosabatlaridagi emotsional xolat xususiyatlari bolaning asab-psixik statusini belgilab berishi ilgari surilgan. Ya’ni, bolani shundayligicha qabul qilish, emotsional jihatdan xotirjamlik bolaning asab xolatini konstruktivligiga, va aksincha bolani emotsional jihatdan qabul qilmaslik – bolaning asab psixikasida zo‘riqishni yuzaga keltirib, xarakterida destruktiv omillarni kuchatirib yuborishi ilgari surilmoqda.

O‘rganilgan nazariy manbalardan kelib chiqqan xolda, bolaning o‘ziga munosabati va o‘z-o‘zini anglash xususiyatining yoshga xosligishini aniqlash va o‘rganish uchun quyidagi metodikalardan foydalanildi: "Uy. Daraxt. Inson" rasmi test qo‘llanildi. Oilaviy xaetning turli vaziyatlariga bo‘lgan munosabatni o‘rganish maqsadida Ye.S.Shefer va R.K.Bellning PARI (parental attitude research instrument), metodikasi o‘tkazildi. Ushbu metodikalarda ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi shkalalaridan foydalandik xolos. Shuningdek, A.Ya.Varga i V.V.Stolinaning modifikatsiya qilingan (R.I.Sunnatova i Ye.Yu.Agzamovalar tomonidan modifikatsiya qilingan) test-so‘rovnomasi ishlatildi. Olingan natijalarning matematik statistik tahlili Komogorov-Smirnov mezonlari) ko‘pfaktorli dispersion tahlil, SPSS dasturdagi Ch.Spirmanning rang korrelyatsiyasidan foydalinildi.

2.2. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHIDA OTA-ONA O‘ZARO MUNOSABATLARINING ROLI

2.2.O‘zligini anglash – o‘zligini bilish va o‘z- o‘zini baholash omili.

O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘z ichiga o‘zini ongli ravishda boshqarishni oladi. Bu o‘z-o‘zini bilishni tashkil qilishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘zligini anglashni tashkil qiladi. O‘zlikni anglashning takomillashuvi jarayonida insonning o‘zi haqidagi tasavvur ham uning faoliyati natijalari, jamoadagi xolati, jamiyatning unga bo‘lgan talablari bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi. Bunda o‘zlikni anglashni shakllanganligining asosiy ko‘rsatgichi bo‘lib, o‘z- o‘zini xolisona baholashga xizmat qiladi. Agar, shaxs, o‘smir o‘z- o‘zini xolis baxolay olsa, tarbiya o‘z- o‘zini tarbiyalashga aylanadi. Pedagogik ta’sir va talablar yuqori darajada qabul qilinadi. Agar shu narsa bo‘lmasa, ko‘p xollarda shaxs tubanlashuvi, yolg‘on ideallar va yomon namunalar ta’sirida salbiy siflarni o‘zlashtirish, o‘ziga singdirish ro‘y beradi. O‘zlikni bilishni boshqarish va o‘z- o‘zini baholashni shakllantirishga o‘rgatish oson ish emas.

Ko‘pgina ilmiy manbalarda o‘zlikni anglash “Insonning o‘z bilimlari, ma’naviy qiyofasi va qiziqishlari, idealari va axloq motivlarini anglash, baholash, o‘z-o‘ziga arbob sifatida xis qiluvchi va fikrlovchi mavjudod sifatida yaxlit baho berishi” “Insonning o‘zini ob’ektiv dunyodan ajratishi, o‘zining borliq olamga munosabatini anglash va unga baxo berishi, o‘zini shaxs sifatida anglashi. O‘z xatti xarakatlari, fikrlari va xislari , istaklari va qiziqishlarini anglashidir deb ta’rif beriladi .

Pedagog va psixologlar o‘zlikni anglashga ta’rif berishda insonning o‘z – o‘zini jamiyat bilan munosabatlar tizimida anglashini bildiruvchi pedagogik – psixologik toifa sifatida tushinishdan kelib chiqadi .

Shunda o‘zlikni anglash, xatti - xarakatlarni taxlil qilish va baholash, axloqdagi yaxshi va yomon qirralarni farqlash, imkonini beradi, natijada o‘z – o‘zini holis, obe’ktiv baholashning shakllanishi uchun zarur sharoit yaratiladi .

Katta o‘smir yoshida o‘zlikni anglashda sifatiy o‘zgarish yuz beradi . Bu yoshda o‘zining ichki dunyosini majmuaviy taxlil qilish, o‘zlikni tizimli bilish, faoliyatning har xil turlarida o‘z – o‘zini kuzatish jarayonlari sodir bo‘ladi . Agar kichik o‘smir yoshida jamoa fikri xal qiluvchi axamiyatga ega bo‘lsa, endi katta yoshdagi o‘smirlar o‘z shaxsini va o‘zgalar shaxsini baholashda tashqi tanqidga nisbatan o‘zining qarashiga ega bo‘ladi. (S. Bodalev . Shkirman A . L .) Ibtidolar ibtidosi – o‘zlikni bilishdir.

Qurilishi jixatidan psixologlar shartli ravishda to‘rt o‘zaro bog‘liq tomonlarni (o‘z – o‘zini bilishi, o‘z – o‘ziga munosabat, o‘z – o‘zini xis qilish, o‘z – o‘ziga ta’sir), ularning har biri o‘ziga turli imkoniyatlarni jo qiladi. Biroq o‘z – o‘zini bilish o‘z –o‘zini xis qilish va boshqalarning manbaidur .

O‘z –o‘zini bilish o‘zlikni anglashning bilish qirrasida o‘zini yaxlit shaxs sifatida tushinish bilan bog‘liq . Uning tarkibiga o‘z –o‘zini kuzatish, o‘z – o‘zini taxlil, o‘z –o‘zini tanqid, o‘z – o‘zini nazorat va baholash kiradi. Bularning hammasiga birgalikda kishining o‘ziga shaxs sifatida ob’ektiv, xolis tavsif berishga yordam beradigan o‘ziga xos usullar sifatida qaraladi.

O‘z shaxsini tushinish, o‘zini kashf qilish o‘z – o‘zining takomillashtirishning maxsus maqsadi bo‘lib qolishi mumkin. O‘z – o‘zini boshqarish, o‘z –o‘zini tarbiyalash, o‘z –o‘zini o‘rganishsiz, bilishsiz o‘zining manosini yo‘qotadi: shu narsani qila olasanmi, shu narsaga intilishing o‘zini oqlaydimi, buni bilmasdan turib istalgan narsaga erishib bo‘lmaydi. Ayrim paytlarda o‘z – o‘zini boshqarishda o‘z –o‘zini bilish xal qiluvchi omil bo‘lib qoladi . Masalan, o‘z – o‘zini baholash o‘z – o‘zining bilishning muxim vositasi sifatida insonni o‘z xatti xarakatlarini mustaqil yo‘naltirish va nazorat qilishga, o‘zida ma’naviy sifatlarni tarbiyalashga, kamchiliklarni yengib o‘tishga yo‘naltiradi. Biroq o‘z – o‘zini baholash o‘z –o‘zini bilish jarayonini o‘zicha taminlay olmaydi. O‘z – o‘zini baholash, o‘z – o‘zini kuzatish bo‘lganda, ob’ektiv, xolis o‘z –o‘zini baholash esa, o‘z navbatda, o‘z –o‘zini taxlil qilish, nazorat, tanqid bo‘lgandagina mumkin bo‘ladi. Shu sababli o‘z – o‘zining bilishning o‘z –

o'zini baholashga bo'lgan to'g'ridan – to'g'ri, bevosita yo'li yo'q, bunda ayniqsa, o'ziga nisbatan talabchan munosabat zarur .

O'z – o'zini bilish yaxlit xolda o'z ustida ishlash mazmunini o'z –o'zini tarbiyalash dasturini belgilaydi. Ayni paytda, u shaxsning batafsil dasturini tuzish ,o'quvchilarda tarbiyalanayotgan tegishli maqsadlar, idiallarga erishish uchun zarurdir. Demak, o'z –o'zini bilish asosidagi o'zlikni anglash, umuman olganda, o'z – o'zini boshqarishga, tarbiyalashga olib borishi mumkin ekan. Lekin bunda o'z –o'ziga munosabatning rolini ham nazardan qochirmaslik kerak. Shuning uchun o'zlikni anglashning turli qirralari o'z –o'zini boshqarish va tarbiyalashga nima bera olishi mumkinligini ko'rib chiqamiz .

O'zlikni anglashning ifoda – qiymatli tomoni bo'lgan o'z –o'ziga munosabat insonni o'ziga shaxs sifatida munosabatda bo'lishini nazarda tutadi. U birinchi navbatda, shaxsning o'ynalganligi (maqsadlari, ideallari, extiyohlari, qiziqishlari) ni, qadiryatlar ma'naviyqiymatlarga o'ynalishi, o'ziga talabchanligi, o'zini ifoda qila olishini o'z ichiga oladi. O'z – o'ziga munosabat xamisha o'z – o'zini xis qilish bilan bog'liq, o'z – o'zini xis qilish. Esa o'z navbatida o'z – o'zini ifoda qilish, o'zini tasdiqlash bilan bog'liq. O'zidan ko'nikish yoki ko'nikmaslik bilan ifodalanadigan shaxsning ruxiy xolati o'zining xulqi bilan ichki muxitni yaratadi, ichki muxit esa o'z navbatida inson “Men” ining barcha ko'rinishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, o'z – o'zini takomillashtirish qaysi rejada amalga oshimrishi ko'p jixatdan o'z – o'zini bilish va o'z – o'ziga munosabatga bo'lishga bog'liqdir.

Agar shaxs o'zini to'g'ri ifodalashga, o'z xatta- xarakatlariga tanqidiy va xolisona yondoshishga qobil bo'lsa, unda baribir, o'z – o'zini tarbiyalashga extiyoj tug'iladi.

O'z – o'zini xis qilish va o'z – o'ziga ta'sir o'tkazish o'zlikni anglashning hissiy - emotsional tamoni sifatida namoyon bo'ladi. O'zlikni anglashning xissiy – ematsional tomoni qiziqishlar, istaklar, kayfiyat ularni boshqara bilish kabi komponentlar, tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi o'z xissiyotlari va fikrlari, hatti – xarakatlarini boshqarishga, asoslashga, o'z – o'zini

tarbiyalashda u yoki bu darajada namoyon bo‘ladi. O‘zlikni anglash va o‘z-o‘zini boshqarishning o‘zaro

aloqasi va o‘zaro bog‘liqligini quydagi chizma tarzida tasavvur qilish mumkin:

	O‘z-o‘zini kuzatish
O‘z-o‘zini	O‘z-o‘zini taxlil
bilish	O‘z-o‘zini tankid
	O‘z-o‘zini nazorat
	O‘z-o‘zini baxolash
	Yo‘nalganlik
O‘z-o‘zini	
munosabat	Kadryatlarga yunalish
	Uziga talabchanlik
	O‘z-o‘zini ifodalash
	O‘z-o‘zini xis kilish
	O‘z-o‘zini sezish
	O‘z-o‘zini choglash
O‘z-o‘zini boshkarish	O‘z-o‘zini kayta kurish
	O‘z-o‘zini davatlash
	O‘z-o‘zini ragbatlash
	O‘z-uziga ta’sir

ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ

ХУЛКИ ВА ФАОЛИЯТДА
ЎЗ-ЎЗИНИ БОШКАРИШ

O‘zlikni anglash shakllanishning har bir uslubi o‘z-o‘zini boshqarishning komponentlariga muayyan tarzda ta’sir ko‘rsatadi. O‘z-o‘zini o‘rganish uslubi ustivor tarzda o‘z-o‘zini boshqarishning rejasi va mazmunini belgilaydi. O‘z-o‘ziga munosabat –uning roli va motivlarini, o‘z-o‘ziga ta’sir va o‘z-o‘zini xis qilish esa o‘z-o‘zini boshqarish, tartiblash madaniyatini belgilaydi. Demak, o‘z-

o‘zini bilish o‘z-o‘zini boshqarishning yaxlit jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi, oxir-oqibat uning yunalishini, sifati va samaradorligini ta’minlaydi.

2.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Men” konsepsiyasining rivojlanishi bilan er-xotin munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligi.

Oilada bola tarbiyasining o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lib otanalar ulardan o‘rinli foydalanishlari lozim. xususan, ular quyidagicha:

1. oilada hissiy maslik, ruhiy xotirjamlik va iliq iqlim yaratish.
2. ota-ona obro‘cini saqlash.
3. tarbiyada ota-ona, kattalar o‘rtasida talabchanlik birligi.
4. bola shaxsini mehnatda tarbiyalash.
5. oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi.
6. bolani sevish va izzat qilish.
7. oilada qat’iy rejim va kun tartibi o‘rnatish.
8. tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.
9. bola taraqqiyotini aniqlab berish.
10. bolada mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini hosil etish va boshqalar.

Oilada bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etib, faqat farzandlarga ruhiyat va ma’naviyat bilimidan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasdan balki o‘zlari ham tarbiya sehlari, xususiyatlari, holatlari mohiyati va ma’nosi yuzasidan yangi-yangi ma’lumotlardan xabardor bo‘lib turishlari kerak.

Ba’zi ota-onlar farzandlari bilan kamroq muloqotda bo‘lishi ulardan o‘zlarini nariroq olib yurish bilan obro‘ orttirishni uylashadi. Ularning nazarida, go‘yo farzand bilan qancha kam uchrashilsa, shuncha ko‘proq obru qozonish mumkin. Bu mutloqo noto‘g‘ri tushuncha, ota-ona o‘z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo‘lsa, ular o‘rtasida begonalashish, loqayd bo‘lish holatlari kelib chiqadi.

Ayrim ota-onalar bola bilan faqat rasmiyatchilik orqali obro‘ orttirishga harakat qilishadi, xolos. Bunda ular qildan qiyiq qidirishadi.

Bolaga tanbeh berishadi, uning barcha hatti harakatlarini cheklab qo'yishadi, bular bo'lmasga jerkib, siltab tashlashadi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, farzandlarga ortiqcha pand-nasihat qilaverish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Chunonchi, ba'zi ota-onalar arzimagan mayda-chuyda masalabo'yicha ham uzundan-uzoq ugit-nasihat qiladilar, o'zlarining nasihatgo'yiligini burch deb hisoblaydilar. Maydagaplik, ezmalik bilan o'g'il-qizlar o'rtasida obro' qozonib bo'lmaydi.

O'zbek oilasida bola tarbiyasi haqida gapirganda, keyingi avlodlarga boy meros qoldirgan O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlarini eslash muhimdir. Ular hozirgi kunlarimizda ham o'z ahmiyatini yo'qotmagan tarbiya, shaxsni kamol toptirish, oilada bolani tarbiyalashning yo'llari haqida qimmatli fikrlarni bayon etganlar.

Bir yigit Ibn Sinodan «Bola tarbiyasini qaysi» yoshdan boshlash kerak? – deb so'rabdi. Ibn Sino: «O'g'lingiz necha yoshda» deb savol beribdi va uning bir yarim oylik bo'ldi, degan javobini eshitgach «Siz bir yarim oy kechikibsiz?» - debdi. Bugungi kunda bolani haqiqatan tug'ilgan kundan boshlab tarbiyalash kerakligiga hech kim shubha qilmaydi, bu bizning psixologlarimiz va pedagoglarimiz tomonidan isbotlangan.

Abu Ali Ibn Sino oilaviy tarbiyaning umumiy asoslarini bayon etishga harakat qilgan. «Aga oila tarbiya usullaridan to'g'ri foydalansa, - deb yozgan edi olim, - o'z hayotida baxtga erishadi». Buning uchun tarbiyaning to'g'ri metodlari bayon etilgan «Tadbiri manzil» kitobida aks etgan.

Ibn Sino oilada bolani tarbiyalash, ahvolidan qat'i nazar, ota-onaning asosiy burchi deb hisoblangan, o'z qusurlarini bartaraf qilgan kishigina boshqalarni tarbiyalashi mumkinligini ta'kiflagan. Ibn Sino bolani tarbiyalash omillarini tahlil qilib, ulardan eng to'g'risi – bolalar bilan birga bo'lish va ijobiy misollardan foydalanib, alohida0alohida suhbatlashish, uning izzat nafsiga tegmaslik, deb o'qtirgan. Ibn Sino tarbiyada otaning

rolini ifodalashga kata ahamiyat bergan. «Ro‘zg‘orshunoslik» kitobida «Otaning bolalarga munosabati» degan bob bor. Unda olim jumladan: «Onalar o‘z tabiatlariga ko‘ra yumshoq ko‘ngildirlar va o‘zlarining erkalashlari bilan bolaning xarakterini buzadilar», - deydi. Ibn Sinoning fikricha, oilada asosiy tarbiyachi ota bo‘lishi, u maqsadga erishmoq uchun bolani ba‘zan jazolashi, ba‘zan rag‘batlantirish, vaqti-vaqti bilan maqtashi, ba‘zan tanbeh berish, vaqtida qo‘rqitib qo‘yish, hatto jismoniy jazolashi lozim.

Oilada bola tarbiyasi to‘g‘risida Alisher Navoiy ajoyib fikrlari bor. Navoiyning fikriga ko‘ra, eng muhimi bolalarni sevish, «Bolaga, degan edi ulug‘ shoir, - kichikligidan boshlab yoshini hisobga olgan holda axloqiy tarbiya bermoq zarur». taniqli shoir va pedagog Abdulla Avloniy oilada bolalar tarbiyasi to‘g‘risida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ajoyib fikrlarni bayon qilgan. O‘zining «Yashnagan o‘lka va ahloq» degan kitobida yozganidek, bolaning sog‘lig‘i va baxti avvalo uning yaxshi tarbiyalanishiga, badanining tozaligiga, e‘tiqod hosil qilishiga, yaxshi xulqqa ega bo‘lishiga, uni g‘ayriaxloqiy xatti-harakatlardan ogohlantirilishiga bog‘liq. Bolani tarbiyalashni tug‘ilgan kunidanoq boshlash zarurligi quyoshday ravshan va aniq, uning organizmini mustahkamlash, aqliy qobiliyatini donishmandlik nuri bilan yoritish, uni axloqiy kamol toptirish, xotirasini mashqlantirish kerak.

Bola tarbiyasi bilan birinchi navbatda ota-onalar shug‘ullanishi lozim. «Bolalarni tarbiyalash – onaning burchi va otaning muqaddas majburiyati». Mashhur pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziy oila tarbiyasi masalasini, ota-onalar bilan bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasini yangicha tahlil qildi. U birinchi navbatda tan jazosini qo‘llashga qarshi chiqdi, uning fikricha, tan jazosi bola ruhini razil yoki yovuz va qaysar qilib qo‘yadi. Hamza oila tarbiyasida bolalar bilan ko‘proq bog‘langan onalarning rolini yoritishga kata ahamiyat beradi. Ona o‘z bolasiga mehr-muhabbat va

mohirlik bilan ta'sir ko'rsatib borishi zururligini o'qtiradi. Bolalar va yoshlarga ishonirish vositasi bilan burch tuyg'usini singdirish lozim, deb hisoblaydi.

Ota-ona obro'si milliy tarbiyaning asosidir. Aynan shu omil orqali ular farzandlarining ongiga, xulq-atforiga ma'naviy ta'sir qiladilar. Ota-ona obro'si o'z-o'zidan paydo bo'ladigan ne'mat emas. U ota-onaning bola tarbiyasi bilan maxsus shug'ullanayotganligi yoki shug'ullanmayotganliklari bilan belgilanadi. Olib borgan kuzatuvlarimiz hayotda ota-onaning tarbiyachilar sifatidagi obro'larini tushiruvchi sabablar mavjudligini ko'rsatdi. Bular:

- ota-onaning o'zlarining bolalarining boquvchilari sifatida anglab, tarbiyachi axloqsiz turmush tarzi;

- oilalarda uchrovchi axloqsiz turmush tarzi;

- ota-onaning bolalarga aytgan so'zlari, pand-nasihatlari, farzandlar bilan asosan buyruq, hukm orqali gapirishlari;

- ota-onaning o'quvchi farzandlarining hayoti, qiziqishlariga e'tiborsizliklari, ularga vaqt va diqqat ajratmasliklari, o'quvchilarni oila yumushlariga jalb qilmaslik (ayniqsa o'smirlar o'zlariga nisbatan beparvolikdan qattiq iztirob chekadilar. Natijada ota-ona va o'smir orasida sovuq munosabatlarining paydo bo'lishiga yo'l qo'yiladi);

- o'quvchi-farzandlar bilan munosabatda ularning yosh xususiyatlarini bilmaslik (boshlang'ich sinf o'quvchilari ota-onaning qarashlariga, fe'l-atvorlariga taqlid qilib keladilar. Ana shuning uchun ham xalqimizda ularni «shirin» deyishadi. O'smirlik davri boshlangaya, bolada keskin o'zgarish-o'tmish davri boshlanadi. Ota-onalar va bolalar orasidagi ziddiyatlarning asosiy qismi shu davrga to'g'ri kelishining boisi ham shundadir. Ota-onaning o'z farzandlariga xos yosh xususiyatlarini bilmasliklarining oqibati bolalarni – o'smirlarning ota-onadan (ko'pchilik hollarda otadan) qalban uzoqlashuviga olib keladi);

- ota-onaning o‘zlarining farzandlari uchun har kun, har soat, har daqiqada shaxsiy namuna ekanliklarini anglay bilmasliklari;

- o‘quvchi-farzand tarbiyasi uchun bor ma’suliyatni maktabga tashlab, o‘zini soqit qilish;

- rag‘batlantirish va jazolashda tarbiyaviy maqsaddan kelib chiqqa bilmaslik.

- milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantira bilmaslik, hafsalasizlik;

- tan jazosi bilan qo‘rqitish;

- ota-onaning farzandlar ko‘z o‘ngida janjal qilib turishlari;

- unda oshkora ichkilikbozlik qilinishi, behayo so‘zlar, qarg‘ishlar, so‘kinishlar;

- o‘z farzandini «eng yaxshi» deb hisoblash;

- «biz qiynalganmiz, bolalarimiz rohat qilsin» Deya o‘quvchi farzandlarini erkalatib yuborish yasantirishga hirs qo‘yish yoki buning aksi – «bola qiynalib kata bo‘lsa, ota-onaning, mehnatning hayotning qadriga yetadi» deya ko‘r-ko‘rona qattiqqo‘llik, zarda qilaverish;

- o‘quvchi farzandiga va’da berib, bajarmaslik;

- maktab bilan ta’lim – tarbiyaviy hamkorlikdan «ish ko‘p, vaqt yo‘q» degan bahona bilan o‘zini chetga olish;

- o‘quvchi bolalarni o‘z ajdodlari, shajaralari bilan tanishtirmaslik va hokazo.

Bu kamchiliklarni bartaraf qilishda otaning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zero «Otaning ochgan yo‘li bor, onaning bichgan to‘ni bor». «Otasi borning unumi bor, onasi borning tikishi bor». «Ota-olamning fikri», «Erta tur, otangni ko‘r, otangdan so‘ng otingni ko‘r», «Otangni ko‘rsang, otdan tush», «Ota bo‘lish oson, otalik qilish qiyin», «Ota – bolaga sinchi», «O‘g‘lingni sevsang, qo‘lingdek ishlat», «Otalar so‘zi xitob bo‘lur, ani yig‘mang kitob bo‘lur». .

Oila muammolarini o'rganishda bugungi kunning ahamiyatli masalalaridan biri bo'lgan oilaviy munosabatlar kata o'rin egallydi. Uning ahamiyatli tomoni shundaki, kishining insoniy fazilati, jismoniy hamda ruhiy kamoloti oila bilan bog'liq bo'lgan holda, unda kechayotgan o'zaro munosabatlarning ta'siri bilan shakllanadi va mukammallikka erishishga intiladi, hayotning har bir jabhasiga xos ham nazariy, ham amaliy yo'l-yo'riqlarni «qo'lga kiritish» imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oilaviy munosabatlar odatda oiladagi ota-onaning roli, er-xotin munosabatlari, farzandlarning o'zaro munosabati hamda ularning ota-onalariga bo'lgan munosabatlari, yaqin kishilar, qarindoshlar bilan muloqot qilish xususiyatlari nazarda tutiladi. Hamisha uning inson tarbiyasiga bo'lgan ta'siri borasidagi turli masalalari doimo har bir davrning diqqat markazida bo'lib kelgan. Masalan, Sharqda, oilaning e'zozlanishi, oilaviy munosabatlar, ayniqsa har bir oila a'zosining o'zaro muloqotiga jiddiy e'tirof berilishi haqida juda ko'pgina manbalarda izoh berilgan.

Oilada ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatda hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, shirinsuhanlik, bir-biriga g'amxo'rlik kabi sifatlar, yosh avlodni maqsadga xos tarzda tarbiyalashda samaradorlikni oshiruvchi usullardan biri bo'lib, taqlid qilish borasida yaxshi namuna hisoblanadi. Oiladagi o'zaro munosabatlarni, yuz beradigan voqea ilg'ab oladi. Shuning uchun ham namuna sifatida ota-ona shunday hislatlarga ega bo'lishi kerakki, bulardan:

1. mehnatkash;
2. tartib intizom;
3. mehr-muhabbatli;
4. sabr toqatli;

5. savodxon kabi shunday fazilatlarga ega bo'lgan har bir ota-ona obro'li farzandlarni tarbiyalash sohasidagi ta'sir kuchli bo'ladi. Ota-ona obro'sini ta'minlaydigan eng muhim omil ularning kundalik hayotdagi

ibratli insoniy munosabatlari, mehnatdagi yuksak muvaffaqiyatlar, shuningdek ularning bilim doirasi, dunyoqarashi va axloq-odob bilan aloqador bo'lgan xususiyatlari belgilovchi mezon hisoblanadi. Namunali munosabat o'rnatilgan oilalarda sharqona tarbiyadagidek farzandlar samimiylig va sabr-toqatni, hurmat va ehtiromni o'rganadi.

Oilaviy munosabatlarda ma'naviy ehtiyojga asoslangan aloqalardan biri-muloqot qilish jarayoni muhim hisoblanib, shaxs shakllanishida kata rol o'ynaydigan namuna va taqlid singari shu darajada hal qiluvchi vazifani ado etadi. Chunki, kishi o'zaro shaxslararo munosabatlar jarayoniga kirishishi bilangina atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqeiliklardan xabardor bo'lib, ular o'rtasida axborot ayirboshlash yuzaga keladi. Aslini olganda ham kishilar o'z farzandlariga muloqot tarzida o'qtirib o'rgatadigan har qanday ilmiy, ijtimoiy tajribalari, malaka va bilimlari ham ijtimoiy-taraqqiyotning mahsuli sifatida kishilik

III BOB. OILAVIY MUNOSABATLARNING O‘ZIGA XOSLIGI VA BOLALARDA “MEN” KONSEPSIYASINING TUZILISHINI EMPIRIK JIHATDAN O‘RGANISH

3.1. Tadqiqot metodikalari.

Tadqiqotlar msaktabgacha ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘tkazildi. maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zini-o‘zi anglashini eksperimental o‘rganishga bag‘ishlangan metodikalarni qo‘llashning mezonlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Bunda o‘zini-o‘zi va oila a‘zolarini baholash usuli sifatida Dembo-Rubinshteyn tomonidan taklif etilgan shkalali usul; maktabgacha yoshdagi bolaning o‘zini-o‘zi baholashining shakllanish xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan V.G.Shurning “Zinachalar” proektiv metodikasi, Ye.I.Zaxarovaning “Ota-onalar munosabati” so‘rovnomasi, ota-ona va bola munosabatlaridagi jinsiy identifikatsiyaning xususiyatini ochish uchun G.Filippovaning “Men va mening bolam” proektiv metodikasi, R.F.Belyauskaytening “Oilaning kinetik rasmi” (OKR) metodikasi hamda bolaning o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlarini aniqlashga mo‘ljallangan “Kel, tanishamiz!” va “Sen kimsan?” so‘rovnomasining muallif tomonidan ishlab chiqilgan variantidan foydalanish tartibi va mohiyati sharhlab o‘tilgan. Chunki tadqiqotda ushbu metodikalar ijtimoiy psixologik g‘oyani isbotlash uchun qo‘llanilgan.

Bobning “Ota-onalar va bolaning o‘zini anglash diagnostikasi natijalari” deb nomlanuvchi paragrafi ota-onalarning o‘ziga va farzandiga bo‘lgan munosabatlarini bilish va baholash xususiyatlarini tadqiq etish natijalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ota-onalarning o‘zini-o‘zi baholashi hamda farzandlariga bergan bahosi 1-jadvalda keltirilgan. Natijalarga ko‘ra, ota-onalarning o‘ziga-o‘zi va bolalariga munosabati bahosida o‘ziga xos ma’lumotlar olingan.

3.1.1-jadval

Ota-onalarning o‘ziga-o‘zi va bolalariga munosabatlari

	Onaning o‘zini- o‘zi baholashi	Otaning o‘zini- o‘zi baholashi	Onaning bolasiga bahosi	Otaning bolasiga bahosi
X	6,55	6,11	8,00	7,81
σ	2,04	1,88	1,49	1,71
t	2,84*		-0,128	

Izoh: * $p < 0.01$

Ota-onalarning o‘zini va farzandlarini baholashidagi farqlarni topish maqsadida amalga oshirilgan miqdoriy tahlillarda keskin tafovutlanuvchi holat deyarli uchratilmadi. Onaning o‘ziga bahosi 6,55 ball, otaning bahosi esa 6,11 ballni tashkil etgan sharoitda farzandlariga berilgan baholarida ham nisbiy tenglik o‘rin olganligining guvohi bo‘ldik: onaning bolasiga bergan bahosi 8,00 ball va otaning farzandiga bergan bahosi 7,81 ballni tashkil etadi. Natijalarda farqli munosabatning aks etmaganligini ota-ona o‘z farzandiga munosabati orqali tarbiyaviy ta’siri, o‘zining orzu-niyatlarini ko‘rishga harakat qilishi, farzandiga beriladigan baho uning o‘ziga beriladigan bahoning yana bir ko‘rinishi ekanligi bilan izohlanadi. Ota-onaning farzandiga bergan bahosida ota-onaning o‘z shaxsiga bergan bahosi (“Men”iga), oilaviy muhitiga (qadriyatlariga) va faoliyat natijalari (farzandini tarbiyalashga ko‘rsata olgan ta’siri)ga qaratilgan deb xulosalash mumkin. “Ota-ona – bola” munosabatlari tizimidagi baholashlarning ichki bog‘lanishlarini o‘rganish statistik tahlilimizda ham o‘z aksini topdi (2-jadval).

3.1.2-jadval

Ota-onalarning o'zini-o'zi va bolalariga munosabatlarining interkorrelyatsiyasi

	Ota-onalarning o'zini-o'zi baholashi va bolaning baholari	Onaning o'zini-o'zi baholashi	Otaning o'zini-o'zi baholashi	Onaning bolasiga bahosi	Otaning bolasiga bahosi
1.	Onaning o'zini-o'zi baholashi	1	0,451**	0,580**	0,487**
2.	Otaning o'zini-o'zi baholashi		1	0,355**	0,362**
3.	Onaning bolasiga bahosi			1	0,368**
4.	Otaning bolasiga bahosi				1

Izoh: ** $p < 0.01$

Ota-onalarning o'zini va farzandini baholashidagi ichki korrelyatsiya deyarli yaqqol ijobiy bog'lanishdagi koeffitsientlarda ifodalandi. Onaning o'zini-o'zi baholashi boshqa ko'rsatkichlar bilan ($r=0,451$, $r=0,580$, $r=0,487$; $p < 0.01$); otaning o'zini-o'zi baholashi ham ($r=0,355$, $r=0,362$, $p < 0.01$); onaning farzandiga bergan bahosi ham ($r=0,580$, $r=0,355$, $p < 0.01$); otaning farzandiga bergan bahosida ham ($r=0,487$, $r=0,362$, $r=0,368$; $p < 0.01$) ijobiy ichki korrelyatsion bog'liqlik kuzatildi. Natijalarimiz bunday tus olishining o'ziga xos psixologik sabablari bo'lishi tabiiy, ya'ni oilaning bola ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi institut ekanligi ota-onaning ta'siri orqali o'zini anglashiga, dastlabki ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishiga olib kelishi bilan bog'liq.

Shuningdek, tadqiqotning yana bir maqsadi maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning o'zini baholashi, uning uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa shaxslar baholashi bilan bog'liq holda shakllanish xususiyatlarini o'rganishiga e'tibor qaratilgan bo'lib, buni o'rganishda Dembo-Rubinshteyn shkalasida baholashning verbal omillari bilan tig'iz darajada bog'liq bo'lgan variantidan foydalanilgan. Bunda biz tomonimizdan o'zini baholashda fikrning asoslanishiga, baholash

mulohazalarining chuqurligi va turli-tumanligiga e'tibor qaratildi (3-jadval).

3.1.3.jadval

O'zini-o'zi baholash natijalari

sabat pog'onasi		X	σ	t
Bolaning o'z "Men"iga munosabati	Men-hozirda	4,87	0,41	2,12
	Men-ilgari	4,60	0,73	1,75
Boshqalarning bola "Men"iga munosabati	Ona	4,81	0,39	1,75
	Ota	4,85	0,35	0,71

Bolaning o'zini u yoki bu pog'onaga joylashtirishi asoslarini aniqlash natijasida qiziqarli ma'lumotlar aniqlandi. Masalan, o'zini beshinchi pog'onaga joylashtirgan bolalar o'z tanlovini izohlash uchun quyidagi dalillardan foydalandi: *"Men yaxshiman"*, *"Men quloq solaman"*, *"Men chiroyliman"*, *"Men baxtliman"* va hokazo. O'zini "juda ham yaxshi" deb hisoblamaydigan qolgan kam sonli bolalar *"Chunki mening qo'limdan doim ham hamma narsa kelavermaydi"*, *"Men hali hamma narsani qila olmayman"*, *"Men eng chiroyli emasman"*, *"Ba'zida men quloq solaman, ba'zida esa – yo'q"* deb aytishgan. Shuni qayd etib o'tish kerakki, "yaxshi" tushunchasi bolalar uchun 50%dan ortiq holatlarda "quloq soluvchan" tushunchasi bilan (keyingi "Sen kimsan?" eksperimentidagi kabi), "baxtli" atamasi esa "quvnoq" atamasi bilan bir xil ma'noni anglatadi.

Bolalarning o'zi uchun ahamiyatga ega bo'lgan kattalar tomonidan baholanishi ko'proq differensiyalangan bo'lib, har bir bola o'z ota-onalarini ularga nisbatan o'ziga xos munosabatda, deb hisoblashadi, onaning bahosi bola uchun o'z bahosidan biroz pastroq ahamiyat kasb etadi. Onaning baholashi va pog'onani tanlash motivatsiyasi bola tomonidan bashorat qilinganda, bolaning onaga munosabatini namoyish etadi: *"Onam meni dunyoda hammadan ko'proq yaxshi ko'radi"*, *"Onam menga doim sen eng aqllisan deb aytadi"*, – 4-5 pog'ona, *"Ba'zida men onamga quloq solaman, ba'zida esa – yo'q"* - 3 pog'ona.

Shuningdek, bolaning o'zini-o'zi anglashida o'zining va boshqalarning bahosidagi "Men"iga uni ruhiy rivojlanishining uch davri orqali tahlil etildi va bolaning "O'tmishdagi Men", "Hozirgi (real) Men"i va "Kelajak Men"lari orasidagi o'zaro bog'liqlik va tafovutlar aniqlandi. Natijalarda qayd etilishicha, bola "Men"ining ikki davri, ya'ni "Hozirgi" va "O'tmish Men"i o'rtasida o'zaro muvofiqlikni ta'minlagan. Bola ushbu davrlarda ijtimoiy muhit ta'sirida, shaxsi shakllanishida har xil o'zining yoshiga xos emotsional va xulqiy jihatlarga oid ham ijobiy, ham salbiy ta'sirlarni boshdan kechirgan. Bu esa bolaning baxt va baxtsizlik, yaxshi va yomon, salomatlik yoki kasallikga aloqador munosabatlarini individual tarzda ifodalay olishidan hamda o'zini anglashiga imkon beruvchi taassurotlar manbaiga egaligidan dalolat beradi. Ammo bolaning "Kelajak Men"i bilan bog'liq tasavvurlarida aniqlik yetishmayotganligini, maktabgacha tarbiya muhitida bolada o'zining kelajak tasavvurlari reallikdan ancha uzoq bo'lishi qayd etilgan. Bunday tassavvurlar maktabgacha yoshdagi bolalarning kelajagi to'g'risida aniq timsollarni ifodalab berolmasligi, "Men – timsoli"ni baholay olmasligi oqibatidir.

Hattoki, ota-onalar ham farzandlarining kelajagi bilan bog'liq holatlarni, ular to'g'risida yaqqol tasavvurni aks ettira olmasliklari kuzatildi. Korrelyatsiya tahlilidagi natijalar ham bolaning o'zini-o'zi baholashida "Hozirgi Men" "Ilgarigi Men"i bilan ($r=0,680$, $p<0.01$) mos kelganligi, bolaning o'zini-o'zi anglashida "Men"ning ikki ko'rinishi bog'lanishga ega ekanligidan dalolat beradi. Bolalarning bu natijalari boshqalarning munosabatlari (ota-ona)da ham tasdiqlandi, ya'ni "Hozirgi Men" bilan ona munosabatida ($r=0,636$, $p<0.01$), ota munosabati bilan ($r=0,613$, $p<0.01$) hamda "O'tmish Men" bilan ona munosabatida ($r=0,445$, $p<0.05$), ota munosabati bilan ($r=0,474$, $p<0.05$) hosil qilingan korrelyatsiya bog'liqliklari bir-birini mantiqan taqozo etganligining guvohi bo'lamiz. O'z navbatida ona bilan otaning farzandga bildirgan munosabatlari ham o'zaro bog'liqlikka ega ekanligini tasdiqladi (ona munosabatida ($r=0,636$, $p<0.01$), ota munosabati bilan ($r=0,617$, $p<0.01$)).

3.4.4-jadval

O‘zini-o‘zi baholash natijalari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari

	Men-hozirda	Men-ilgari	Ona	Ota
Men-hozirda	1	0,680**	0,636**	0,613**
Men-ilgari		1	0,445*	0,471*
Ona			1	0,617**
Ota				1

Izoh: *p<0.05, **p<0.01

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu yoshdagi barcha bolalarda o'ziga yuqori baho berish rivojlangan bo'lib, ko'rib chiqilgan o'zini baholashning individual ko'rinishlari uning shakllanish jarayoni aslida murakkab ekanligini hamda bolaning o'z "Men"ini baholashi bilan ota-onalarning o'zlarini real baholari o'rtasida muayyan aloqa borligini ko'rsatadi.

Bola o'zini-o'zi anglashiga aloqador bo'lgan muhim ijtimoiy psixologik omil bu – shaxs ijtimoiy makonining tasavvur etishi hamda undagi huquq va majburiyatlarning aniq tasavvurlarda aks etishidir. Masalan, biz o'rgangan bog'cha yoshidagi bolalarning bir qismigina o'z huquq va majburiyatlarini ularga ota-onalari bergan imkoniyatlar bilan bog'lab tavsiflashlarini aniqladik. Biz bu toifa javoblarni shartli ravishda uch guruhga taqsimlab, burch-huquq tizimida o'zini anglashning quyidagi darajalarini ajratdik:

1) **yuqori daraja** – majburiyatlar va huquqlar aniq belgilangan va ularning ro'yxati 3 tadan 7 tagacha nomdan iborat bo'lib, ular faqatgina axloqiy me'yorlar, maishiy, gigienik talablar, xulq-atvor qoidalari bilangina cheklanib qolmaydi. Masalan, *"Rasm chizishi, narsa yasashi lozim"*, *"Ona bilan birga o'rinni yig'ish va almashtirish"*, *"Onaga idish-tovoq yuvish va artishga yordamlashish"*, *"Jo'ja va Mushukchani boqish"*, *"Matematika bilan shug'ullanish lozim"*, *"Kitob o'qish kerak"*, *"Xushmuomala bo'lish"*, *"Yaxshi bola bo'lish, quloq solish"*. Huquqlar: *"Ona bilan teatrga, ota bilan attraksionlarga, buvi bilan sirkka borish"*, *"Televizorda multfilm tomosha qilish"*, *"Kompyuterda ishlash va o'yin o'ynash"*

kabi.

2) o‘rtacha – majburiyatlar ham, huquqlar ham aniqlangan bo‘lsa-da, yetarli darajada aniqlik bilan yozib qo‘yilmagan, ro‘yxat kam sonli, odatda 3 ta jumladan ham kam, faqat axloqiy me‘yorlar, xulq-atvor, gigiena va maishiy qoidalar bilan cheklangan: “*Ota-onaga quloq solish*”, “*Urishmaslik*”, “*To‘polon qilmaslik*”, “*O‘yinchoqlarni sindirmaslik*”. Huquqlar: “*Konstruktor o‘ynash*”, “*Sayr qilish*” kabi.

3) past – javoblar oddiy bo‘lib, faqat majburiyatlar, asosiy qoida va me‘yorlarga rioya qilish sanab o‘tiladi, ro‘yxatga u yoki bu tavsifnomani kiritishning biron-bir aniq izohi bo‘lmaydi, majburiyat va huquqlar aralashib ketgan: Majburiyatlar: “*Ovqat yeyish kerak*”, “*Uxlash*”, “*Quloq solish*”. Huquqlar: “*O‘ynash*”, “*Ovqat yeyish*”.


Shunday qilib, maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolaning o‘zini anglashida aks ettirilgan shaxs ijtimoiy makonini belgilashi lozim bo‘lgan savollar majmui sinovda ishtirok etayotganlarning yarmini huquq va majburiyatlar kabi asosiy jihatlar haqida tushunchalarning hali to‘la shakllanmaganligini ko‘rsatdi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning oilaviy munosabatlar tizimida o‘zini aks ettirishi va shunga bog‘liq tarzda o‘ziga bergan bahosini o‘rganishda “**Oilaning kinetik rasmi**” proektiv testidan foydalanildi. Test natijalari quyidagicha olindi:

a) “qulay oilaviy vaziyat”ni ifodalovchi xususiyatlar majmui 8 dan 12 ballgacha;

b) “hadiksirash, mojaro, oilaviy nizolar”ni ifodalovchi sifatlar majmui – 1 dan 7 ballgacha;

v) “oiladagi jinsiy rollar bo‘yicha identifikatsiya” majmui – 0 dan 10 ballgacha ko‘rsatkichlar o‘zgarish diapazonini berdi. Bulardan oxirgisi, bizningcha, maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolaning oilaviy munosabatlarni rasmda texnik jihatdan tasvirlash qobiliyati ayni shu paytda ancha rivojlangan bo‘lganligi sababli ko‘p axborotli bo‘lib chiqdi (1-rasm).



1-rasm. OKR rasmlarida keltirilgan ijtimoiy xislatlarning ifodalanganlik darajasi

Test natijalari orasidagi ichki korrelyatsion bog‘liqlik o‘rganilganda, shu narsa aniqlandiki, bolalarning qulay oilaviy sharoitga egaligi, ularda hadiksirash, adovatli hollardan yiroq bo‘lishlariga imkon yaratishi mumkin ekan ($r=-0,391$, $p<0.05$).

Shuningdek, bolalarning jinsiy tafovut va o‘zining jinsiga mansubligini identifikatsiyalashtirish, ularning dastlabki yosh davrlaridayoq namoyon bo‘lishi hadiksirash, adovatli holatlar bilan jinsiy identifikatsiyalashuv orasidagi natijalarda ham kuzatildi ($r=0,673$, $p<0.01$) (5-jadval, 1-rasm).

3.1.5-jadval

OKR rasmlarida keltirilgan ijtimoiy xislatlarning ifodalanganlik ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion munosabatlar

	Qulay oilaviy vaziyat	Hadiksirash, adovatli hol	Jinsiy rollar bo'yicha identifikatsiya
Qulay oilaviy vaziyat	1	-0,391*	-0,069
Hadiksirash, adovatli hol		1	0,673**
Jinsiy rollar bo'yicha identifikatsiya			1

Izoh: * $p < 0.05$, ** $p < 0.01$

Dissertatsiyaning "Oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi va bolalarda "Men" konsepsiyasi rivojlanish darajalarini tadqiq etish natijalarining tahlili" deb nomlanuvchi paragrafida oilaviy munosabatlarni bolaning o'zini anglashiga ta'sirini o'rganish yuzasidan natijalar keltirilgan. Buning uchun tadqiqotda tanlangan oilalarda ota-onalarning er-xotin sifatidagi rollarining adekvatligini ta'minlovchi qadriyatlar tizimini o'rganishga e'tibor qaratildi.

Oilaviy qadriyatlar, er-xotinlik rollari bo'yicha erning (xotinning) rolli da'volari shkalasi individual ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, oilaviy qadriyatlar shkalasi bo'yicha to'plangan ballar qanchalik katta bo'lsa, er (xotin) uchun oila hayotining ushbu sohasi shunchalik ahamiyatli bo'ladi;

– erning (xotinning) nikohdagi hamkor sifatidagi faol roli bevosita uning xulq-atvor yo'nalishini, kutishlarini belgilasa, bu holat ularning bir-birlariga nisbatan da'volari darajasini ham belgilaydi.

Er va xotinning oilaviy qadriyatlar va rol bo'yicha ustanovkalarining muvofiqligi erning oilaviy qadriyatlar shkalasi va xotinning oilaviy qadriyatlar shkalasi ko'rsatkichlari ballari o'rtasidagi farq bilan tavsiflanadi. Bu farq qanchalik kam bo'lsa, er-xotin oila hayotining eng ahamiyatli sohalari haqidagi tasavvuri bir-biriga muvofiqligi shunchalik yuqori bo'ladi. 3 ballgacha farq o'zaro muammoli munosabatlarga sabab bo'lmaydi, 3 balldan ortiq farq esa, er-xotin o'rtasidagi

munosabatlar nizoli xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Deyarli bunday tafovutlar bizning tadqiqot ob'ektlarimizda uchramaganligini qayd etish mumkin (5-jadval).

Oiladagi shaxslararo o'zaro aloqalarning adekvatligi erning rol bo'yicha da'volari va xotinidan rol bo'yicha ijtimoiy kutishlari o'rtasidagi farqqa tengdir. Farq qanchalik kam bo'lsa, erning (xotinning) rol bo'yicha adekvatligi, demak, xotinning (erning) belgilangan funksiyalarni shaxsan bajarishga yo'nalganligi erning (xotinning) oilada faol nikoh hamkori rolini o'ynashini ta'minlaydi (3.1.6-jadval).

3.1.6-jadval

Er-xotinning oilaviy qadriyatlarini tadqiq etish

№	Oilaviy qadriyatlar shkalasi	Ko'rsatkichlar ball		t
		hisobida		
		Ayol	Er	
		M ± m	M±m	
1.	Jinsiy munosabatlar	5,27±0,67	5,82±0,58	t=0,41
2.	Er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqligi (identifikatsiyasi)	7,26±0,54	8,74±0,65	t=2,41 P<0,05
3.	Ota-ona tarbiyachilik	7,14±0,82	7,85±0,96	t=0,57
4.	Ijtimoiy faollik	6,43±0,56	7,08±0,58	t=0,73
5.	Tashqi jozibadorlik	8,84±0,61	7,12±0,43	t=2,32

Yuqorida keltirilgan 6-jadvalda nikoh juftligi a'zolari sifatida ota-onaning oilaviy qadriyatlar ierarxiasini tadqiq etishda olingan ma'lumotlarni qayta ishlashning birinchi bosqichi aks ettirilgan. Undagi yakuniy natijalar oilaviy qadriyatlar ierarxiyasi natijalari ko'rsatkichlarini, ularning oilada bajarayotgan rollari bo'yicha adekvatligini ko'rsatadi. Shuningdek, er-xotinning qadriyatlar mosligi er-xotin juftligining rolli ustanovkalar bo'yicha adekvatligini o'rganishimizda mos kelish darajasi eng kamligi bilan tavsiflanuvchi oilaviy

qadriyatlarga e'tiborni qaratdik, chunki ularning bir-biriga muvofiq bo'lmisligi er-xotin juftligida rol bo'yicha nomuvofiqlik sabablaridan biri hisoblanadi. Nikoh juftligidagi ijtimoiy kutishlar va da'volarning nomuvofiqligi oilada shaxslararo munosabatlar barqarorligini buzuvchi va nizolarni keltirib chiqaruvchi omil hisoblanadi. Aynan shu holatlar ota-onaning bola ijtimoiy tasavvurlari, jumladan, o'zi haqidagi tasavvurlari shakllanishiga ta'sir etuvchi omil deyishimizga olib keldi.

Biz ota-onalar munosabatidagi o'zaro aloqadorlikning farzandlari bilan bo'ladigan munosabatlarga ta'sirini quyidagi uchta asosiy jihat nuqtai nazaridan baholadik.

Birinchi jihat – ota-ona tomonidan farzandining holatini idrok qilish, empatiyaga moyillik kabi tomonlarni qamrab oladi. (Tadqiqotda ota-ona munosabati tavsifnomasining o'zgaruvchanlik diapazoni – $W_n = 2,5 - 4,5$ qabul qilingan).

Ikkinchi jihat – emotsional bo'lib, ota-onaning farzandlari bilan o'zaro aloqa jarayonidagi hissiyotlarini, o'z bolasini shartsiz qabul qilish darajasini, o'zini kattalar tomonidan ota-ona sifatida qabul qilinishi va ota-ona – bolalar munosabatlari ustunlik muhiti quyidagi natijani beradi – $W_n = 2,7 - 4,9$.

Uchinchi jihat – xulq-atvor bilan bog'liq bo'lib, u ota-ona ongida “Ota-ona va bolalar” munosabatlari tizimida farzandining hissiyotlariga, emotsional holatiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini nazarda tutadi – $W_n = 2,7$

Izlanishimiz davomida biz maktabgacha yoshdagi katta bolalarning ota-onalari psixologik-pedagogik madaniyat darajasini tavsiflovchi ota-ona munosabatlari umumiy ko'rsatkichlari onalar va otalarda mos ravishda quyidagi variantlarda namoyon bo'lishini ko'rdik - $W_n = 3,0$ dan $4,9$ gacha; $3,0$ dan $4,4$ gacha. Onalar va otalarda ota-ona munosabatlari umumiy ko'rsatkichlarining muvofiqlik darajasi 0 dan $0,5$ gacha bo'ldi.

3.5. 7-jadval

Onalar va otalarning otalik va onalik munosabatlari

ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari

	Onalar	Otalar
Onalar	1	0,674**
Otalar		1

Izoh: ** $p < 0.01$

Korrelyatsion tahlil natijasiga ko'ra, ota-onalarning otalik va onalik munosabatlari ko'rsatkichlari o'zaro ijobiy bog'liqlikka ega bo'ldi ($r=0.674, p < 0.01$). Bundan ko'rinadiki, bolalarning xulq-atvori hissiy munosabatlarni shakllantirishda otalik va onalik munosabatlarining o'zni muhimligini tasdiqlay olganlar. Turmush qonuniyatlariga ko'ra ham ota-onalikka munosabatning bunday tus olishi tabiiy bo'lishi shubhasiz.

“Men va mening bolam” testi bo'yicha ota-onalar chizgan rasmda ota-ona va bolaning borligi, bola obrazining mazmuni va uning yoshi, ona (ota) bilan bolaning birgalikdagi faoliyati, psixologik masofa, shuningdek, psixodiagnostikada qabul qilingan rasmning formal belgilari (chiziq sifati, varaqda joylashuvi, rasm detallari va hokazo) bo'yicha umumiy holat (ko'ngildagidek holat, o'ziga ishonmaslik, hadixsirash, rasmda ifodalangan antipatiya va nizokashlik belgilari) tavsifnomasi hisobga olindi. Natijalar tahlili rasmi testning boshqa ko'rsatkichlar bilan barqaror uyg'unlashuvchi diagnostik qiymati katta ekanligini ko'rsatdi. Shuni ham hisobga olish kerakki, rasmlar sinovda ishtirok etayotgan hamma otalardan ham olinmadi, natijalar muvofiqlik holatlari yaqqol ifodalangan holatlar yuzasidan chiqarildi. Olingan ma'lumotlar o'ziga ishonmaslik, nizokashlik va hadixsirash simptomlarining unchalik aniq ifodalanmaganligini ko'rsatdi.

3.2. Ota-onalar va bolaning o'zini anglash diagnostikasi natijalari.

Tadqiqot natijalarida onaning farzandi bilan identifikatsiyalashuvi bolaning o'zini anglashida yetakchi o'rin tutadi, degan xulosani asoslashimizga sabab bo'luvchi asoslar yetarli, ya'ni ona doimiy ravishda farzandining tuyg'u va kechinmalarini his etishiga, uning jins jihatidan o'zini anglashida ham belgilovchi o'ringa ega ekanligini aytib o'tish joiz. Chunki onaning bola bilan identifikatsiyalashuvi umumiy holatdagi identifikatsiyalashuvda ($r=0,438$, $p<0.05$), umumiy jinsiy rol bilan identifikatsiyalashuvda ($r=0,467$, $p<0.05$), onaning jinsiy rol bo'yicha identifikatsiyalashuvda ($r=0,708$, $p<0.01$), bolaning jins-rol bo'yicha identifikatsiyalashuvda ($r=0,846$, $p<0.01$); shuningdek, onaning jins-rol bo'yicha identifikatsiyalashuvi bilan bolaning jins-rol bo'yicha identifikatsiyalashuvini kuzatishimizga ($r=0,538$, $p<0.05$) to'g'ri keldi.

Bundan ko'rinadiki, ona ta'siri farzandning tarbiyasi, ijtimoiylashuvi va o'zini anglashida yetakchi omillardan biri sifatida gavdalanadi. Shuni ham e'tirof etish mumkinki, tajribada qatnashgan onalarning 60 foizi o'zlarini farzandlari bilan identifikatsiya qilinishini yuqori baholagan bo'lsalar, otalar bu jihatdan ham onalardan biroz past ko'rsatkichlarni – 40 foizni ko'rsatdi. O'zlarini past identifikatsiyada baholagan otalarga nisbatan shunday toifali onalar atigi 10 foizni, ya'ni bir kishini tashkil etdi. Endi jinsiy rollar nuqtai nazaridan bir-birlarini identifikatsiya qilishda onalar bilan farzandlarning baholari o'rtasida keskin farq yo'q: farzandlarning 43 foizi va onalarning 33 foizi bu mavqeda bir-birlarini yuqori baholagan bo'lsalar, past baholovchilar teppa-teng chiqdi (3 nafardan). Ko'p holatlarda onaning bahosi bilan farzandning bahosi bir-biriga yaqin, masalan, past baholaganlar past yoki o'rtacha, yuqorilar yuqori va hokazo. Demak, umuman olganda, onalarning farzandlar bilan identifikatsiyasi otalarnikiga nisbatan tahlil qilinganda ancha yaqin va o'xshashdir.

Shunday qilib, maktabgacha bo'lgan yoshda yosh bo'yicha aynan bir xillik jarayoni umuman olganda yakunlanish bosqichiga yaqinlashgan, ya'ni o'z yoshiga

oid tasavvurlarning shakllanganlik darajasi o‘rtachadan baland; ijtimoiy jihatdan o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglash endi shakllanayotgan, ya’ni yaqin o‘rab turgan ijtimoiy muhit to‘g‘risidagi tushuncha va tasavvurlarining shakllanganlik darajasi o‘rtachadan past; bolaning o‘z jinsi bilan bog‘liq rollar to‘g‘risidagi tasavvurlarining shakllanganlik darajasi pastdan yuqorigacha bir xilda taqsimlanadi. Nominativ tasavvurlar, ya’ni o‘z ismi, uning ma’nosi atrofidagi tasavvurlar ham mavjud bo‘lib, ular shu yosh uchun yuqori darajada shakllangan; qadriyatlar identifikatsiyasi esa endi rivojlanish bosqichida ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu fikrlarning identifikatsion tasavvurlar nuqtai nazaridan olingan va biz tomonimizdan umumlashtirilgan ma’lumotlar quyidagi 8-jadvalda keltirilgan.

3.1.8-jadval

Bolalarning “Men” konsepsiyasiga oid tarkibiy qismlarining shakllanishi bo‘yicha taqsimlash

“Men” konsepsiyasi	“Men” konsepsiyasi komponentlarining shakllanganlik darajasi (%)				
	Nominativ	Yoshga	Jinsiy	Ijtimoiy	Qadriyatli
Past	0	0	43,3	50	96,7
O‘rta	0	50	36,7	46,7	3,3
Yuqori	100	50	20	3,3	0

“Maktabgacha yoshdagi bolalarning “Men” konsepsiyasi shakllanishiga ta’sir etuvchi oiladagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganish natijalari” deb nomlanuvchi paragrafda maktabgacha yoshda bo‘lgan bolaning “Men” konsepsiyasi shakllanishiga ta’sir etuvchi oiladagi ota-onalarning o‘zaro er-xotin hamda ota-ona sifatidagi munosabatlarning o‘ziga xosliklarini o‘rganishga harakat qilindi.

Ota-onalarda o'tkazilgan so'rov natijalari

savollar javoblar	1	2	3
a	49 83%	13 22%	10 16,9%
b	4 6,7%	13 22%	3 5%
v	2 3,3%	23 38,9%	17 28,8%
g	4 6,7%	5 8,4%	3 5%
d		5 8,4%	11 18,6%
e			0
j			15 25,4%
i			0

Tadqiqotimiz oilaning bola “Men”ini shakllantiruvchi muhim sotsium – ijtimoiy muhitga aylanib, o‘zining ushbu muhitga aloqadorligini anglash, baholashga imkon berdi. Tadqiqot davomida shunga ishonch hosil qildikki, maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolada o‘ziga nisbatan munosabat ota-ona bilan muloqoti ta’siri ostida shakllanishi isbotlandi. Ya’ni bolalardan olingan ma’lumotlardan shu narsa ma’lum bo‘lmoqdaki, ulardagi aksariyat belgi va xislatlar, avvalo, onasining ta’sirida shakllanishi, bu yoshda o‘zini baholashga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi yagona omil bu – ota-ona, xususan, onaning farzandiga bo‘lgan munosabatining yaxshi emasligi (xususiyl hollarda), yetarli darajada ota-ona mehridan bahra olmagan bolalargina maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalikdayoq o‘z imkoniyat va qobiliyatlarini beqaror, o‘ta tanqidiy baholashlari;

maktabgacha bo‘lgan katta yoshdagi bolalarda oilaviy qadriyatlar va ular ta‘sirida shakllanadigan “Men” konsepsiyasining pastligi aniqlandi.

Sinaluvchilarni maktabgacha ta‘limning 5-7 yoshli (15 nafar) tarbiyalanuvchilari, 7-10 yoshli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (15 nafar) tashkil etdi. Jami qatnashganlar bolalar soni 30 nafar, ota-onalar soni 46 nafarni tashkil etdi. Tadqiqotda shuningdek, 17 nafar boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari, 12 nafar pedagogika va psixologiya ta‘lim muassasasi xodimlari ham ishtirok etishdi. Tadqiqotda jami 30 nafar respondent qatnashdi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida biz maktabgacha va boshlag‘ich ta‘lim bolalarining ruxiy xolat xususiyatlarini tadqiq etdik. R. Bens, S. Kaufman, B. Gudinaf, S.R. Reynolds, G. Xomentauskas, R.F. Belyauskaytelarning tadqiqotlariga asoslanib, bolaning o‘zini yaxshi xis etishi, o‘ziga va atrofdagilarga samimiy munosabati, o‘ziga ishonch xislarini konstruktiv asab psixika statusi sifatida qabul qilinishni lozim topdik, zero aynan shu psixik xolatlar bolaning shaxsiy rivojlanishiga asos soladi. Destruktiv asab-psixika statusi esa, aksincha bolaning shaxsiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: xavotirlik, qo‘rquv, to‘laqonli emaslik xissi, nizolarga moyillik va asabiylik. Bolaning asab-psixik statusi xususiyatlarini aniqlash va o‘rganish maqsadida "Uy. Daraxt. Inson" (UDI) rasmi testdan foydalandik. Rasmi testlar orqali bolaning ichki dunesini bilib olish imkoniyati juda keng, zero bola rasm chizish faoliyati orqali o‘z ichki kechinmalarini, atrof-muxitga bo‘lgan munosabatini to‘laroq bayon eta oladi.

Natijalar interpretatsiyasi B.Gudinaf, S.R.Reynolds, R.F.Belyauskaytelarning (1983) tadqiqotlariga asoslangan. Sifat ko‘rsatkichlari simptomokomplekslarda tizimli ravishda ifodalangan: xavotirlik, o‘z-o‘ziga ishonch sustligi, to‘laqonli emaslik xissi, jahldorlik, qo‘rquv, muloqotga kirisha olmaslik va tushkunlik. Bolalarning chizgan rasmlarini tadqiq etishda biz R.F.Belyauskayte i G.T.Xomentauskas (1987, 1989) fikrlaridan hamda I. Sunnatovanning (2008) tavsiyalariga asoslandik.

Tayyorlov guruhidagi maktabgacha ta'lim muassasasi tariyalanuvchilari va boshlang'ich ta'limning o'quvchilaridan iborat ikkala gurux natijalari statistik taxlildan so'ng, "UDI" testi bo'yicha o'rta ko'rsatkichlarning normal xolatini ifoda etishdi. Bu xolatni Kolmogorov-Smirnovlarning taqsimot tengligi mezonini isbotladi (r -qiymati 0,620 va 0,623ga teng) hamda mediana va o'rta qiymat ko'rsatkichlari tengligi o'rta nisbatda bo'ldi. Mazkur ko'rsatkichlar sinalmalarning representativligini ifodalaydi hamda turli emotsional xolatda bo'lgan bolalarni aniqlash imkoniyatini beradi. Buning uchun biz protsentil usulidan foydalandik. Ushbu usul 24% dan 74% gacha bo'lgan o'tra ko'rsatkichlar qiymatini ifodalaydi. Demak, bizda «konstruktiv A-PS» (24% dan kam) va «destruktiv A-PS» (74%dan yuqori) ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ikki guruh xosil bo'ldi, ya'ni yuqori ball ko'rsatkichi ruhiy xolat samaradorligiga teskari proporsionalligini ifoda etdi.

Asab-psixika statusi komponentlaridan aynan simptomokomplekslarni ko'rib chiqsak. Dispersion tahlilga ko'ra maxsus simptomokomplekslarning guruxlararo dispersiya ballari guruh ichidagi qiymatdan yuqori (0,033 nisbatda F -qiymati 3,32). Bu shundan dalolat beradiki, simptomokomplekslar tizimli yaxlit strukturaga ega.

"UDI" metodikasi natijalarining dispersion taxlili orqali tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari va kichik maktab yoshi o'quvchi bolalarning asab-psixika statusida yesh davrlari xususiyatlari aniqlandi.

F - qiymatning yosh davrga ta'sirida 13,71 $r=0,009$ o'rtacha ko'rsatkichi tayyorlov guruhidagi bolalarda va kichik maktab yoshi o'quvchilarida destruktivlik darajasi statistik jihatdan xar xil ekanini ifodalaydi. «Simptomokompleks yosh nisbati» dagi F -qiymatning 9,84 $r=0,004$ ko'rsatkichi bolaning asab-psixika statusiga uning yoshi ta'sir etishidan dalolat bermoqda. Ko'rsatilgan farqlar o'rta qiymat hisobida ifodalangan, ya'ni: tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilar destruktivlikning o'rta darajasi N-PS 6,17ga ega; kichik maktab yoshi o'quvchilari esa – 3,93ni ifodalaoqda. Boshqacha qilib aytganda, "destruktiv" guruhidagi kichik

maktab yoshi o'quvchilari tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilariga nisbatan yaxshirok emotsional xolatga ega.

Destruktivlikning o'rtacha ko'rsatkichlarini solishtirish bilan birga har bir yosh davrga doir simptomokomplekslarning o'rtacha qiymatlari aks etgan №1 grafikka e'tibor qarating. Mazkur ko'rsatkichlar tarbiyalanuvchilarda kichik maktab yoshi o'quvchilarnikiga nisbatan yuqoridir. Bunda grafiklar chizig'i deyarli bir xil bo'lib, simptomokomplekslar nisbatan yaqqol, tizimli strukturaga ega ekanligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bolalar katta bo'lishi bilan birga nafaqat psixik statusdagi simptomokomplekslar ko'rsatkichlarining o'zgarishi, balki emotsional xolatdagi sifat ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgarishi ham kuzatiladi. Asab psixik statusi simptomokomplekslarning oddiy yig'indisi bo'libgina qolmay, o'zaro bog'langan elementlar tizimi hamdir.

Kichik maktab yoshi o'quvchilarda emotsional xolatning yaxshilanishi balki bolaning tabiiy o'sishi bilan ham bog'liqdir, bunga mustaqil ko'nikmalarni ifodalovchi ma'lum bir psixofiziologik tizimlarning rivojlanishi, aqliy va ijtimoiy taraqqiy etish ta'sir etgan bo'lishi mumkin.

Izoh: grafikdagi yuqori chiziq –kichik maktab yoshi o'quvchilari , quyi chiziq – tarbiyalanuvchilar.

Shu bilan birga, simptomokomplekslarda ba'zi farqlarni ajratish mumkin, xususan, to'laqonli emaslik xissi tarbiyalanuvchilarda kichik maktab yoshi o'quvchilarnikiga nisbatan yuqoriroq. O'quvchilarda bu xis 3 chi o'rinda turar ekan, bu xolat o'quvchining ijtimoiy vaziyati bilan bog'liq, ya'ni maktab o'quvchisi ma'lum bir ijtimoiy maqomga ega bo'lgan shaxs sifatida o'zini qabul qilishi bu xisni (to'laqonli emaslik xissini) kamayishidan dalolat beradi. Yakkol "konstruktiv" va "destruktiv" asab-psixika statusi bilan ajralib turgan individual xususiyatlar farqlarining natijasi bilan tanishamiz.

Izoh: grafikdagi yuqori chiziq – konstruktiv, quyi chiziq – destruktiv.

Grafikda ko'rsatilganidek, kichik maktab yoshi o'quvchilari va tarbiyalanuvchilarning asab-psixika statuslarida ma'lum bir o'xshashliklar mavjud.

Bu xolat rasmda ham yaqqol aks etgan. Ikkala guruhda ham xavotirlik, to‘laqonli emaslik xissi va ximoyasizlik yuqori ko‘rsatkichlarga ega, nizolar va muloqotdagi qiyinchiliklar esa o‘rtacha ko‘rsatkichdan pastrok qiymatlarni ifoda etgan. Ushbu ko‘rsatkichlar xavotirlik, to‘laqonli emaslik xissi va ximoyasizlik kabi ruhiy xolatlarning yosh davr bilan bog‘liq bo‘lgan determinantlikni asoslaydi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bosqichida ota-onalarning bolalariga bo‘lgan munosabatini aniqlash uchun Varga-Stolin metodikasidan foydalandik, shu maqsadda ota-ona va tarbiyachilar uchun Pari metodikasi ham ishlatildi (bizning tadqiqotga bevosita doir bo‘lgan shkalalar tanlab olindi).

SPSS kompyuter dasturi orqali tarbiyachilar va o‘qituvchilar ko‘rsatkichlarining Mann Uitni korrelyatsiyasini ham o‘tkazdik.

Birlamchi natijalarning tahlilidan so‘ng biz konstruktiv va destruktiv asab psixik statusga ega bo‘lgan bolalarning (tarbiyalanuvchilar va kichik maktab yoshi o‘quvchilar) ota-onalarini ikki guruhga ajratib oldik. Konstruktiv A-PS ga ega bo‘lgan ota-onalarning aksariyati o‘z bolalarini intergral qabul qilishlari, gipersotsial ustanovkalar “mening bolam-omadsiz”dan foydalanmasligi bilan ajralib turishini faraz qilgan edik. Destruktiv A-PSga ega bo‘lgan bolalar guruhida ota-onalarning bolalariga salbiy yondashuvini hisobga olgan edik.

Ota-onalarning bolaga munosabati xususiyatlari hamda A-PS to‘liq mos kelishi kuzatilmagan, chunki bolaning kayfiyati faqat ota-onasining unga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq emas. 3jadvalda berilganidek, bolaning asab psixika statusi ota-onalarning ularga bo‘lgan munosabati turiga bog‘liq. Ota-onalarning qanchalik gipersotsial ustanovkalari kuchli bo‘lsa, bolaning asab psixika statusi shunchalik salbiy bo‘ladi.

Olingan natijalarga ko‘ra, kattalar bolalarni tarbiyalashda tobelikni, ortiqcha qo‘llab-quvvatlashni, irodasini bo‘ysundirishni, pedagogga itoat qilishni shakllantirib boradilar. Pedagoglarning bolaga bo‘lgan munosabatlarini tahlili shuni ifodaladiki, ta’lim muassasalarida bolaning o‘ziga nisbatan bo‘lgan

ishonchni soʻndirish determinanti, passivlikni kuchaytiruvchi, bolada infantillikni rivojlantiruvchi ijtimoiy muxit xukm surar ekan.

Bizning tadqiqotda ishtirok etgan pedagoglarda bolaga nisbatan ortiqcha talabchanlik, ularning itoat qilishiga urinish, bolaning fikrini inobatga olsa-da, buni bildirmaslikka urinish namoen boʻlgan. Kattalarning bolaga boʻlgan bunday munosabatida tarbiyalanuvchilardan xavotir olishni ifodalaydi, biroq tarbiyadagi bunday yondashuv bolaning ijtimoiylashuv jaraeniga salbiy taʼsirini koʻrsatadi.

Oʻtkazilgan statistik-matematik tahlil va olingan natijalarga koʻra, ilmiy farazlarimiz asoslanganligini ifodalaydi va quyidagi xulosalarni taqdim etadi. Konstruktiv A-PS ga ega boʻlgan ota-onalarning aksariyati oʻz bolalarini intergral qabul qilishlari, gipersotsial ustanovkalar “mening bolam-omadsiz”dan foydalanmasligi bilan ajralib turishi toʻgʻrisidagi farazimiz asoslandi.

Bu esa, destruktiv AP-Sga ega boʻlgan bolalarda ota-onalar bilan qarama-qarshi munosabatlar ustun boʻlishini ham ifodalab berdi. Bolaga nisbat gipersotsial ustanovkalar “mening bolam – omadsiz bola” qanchalik kuchli boʻlsa, maktab oʻquvchisiga yangi talablar qancha tez ortib borsa – bu xolatlar uning asab psixika statusiga salbiy taʼsir etishi, qiyinchiliklar tugʻdirishi aniqlandi.

Umumiy xulosalar

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, kattalar (ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilar) ning bolaga bo'lgan munosabatida muxabbat, qadrlash, mas'uliyat xissi qanchalik yuqori bo'lmasin, bolaning shundayligicha qabul qilish xissi o'zining intergralligi bilan ajralib turibdi, bu esa o'z navbatida bolaning ijtimoiylashuv jaraenining muammolariga hamda asab-psixika statusi destruktivligiga zamin yaratadi.

Oilaviy munosabatlarda ma'naviy ehtiyojga asoslangan aloqalardan biri-muloqot qilish jarayoni muhim hisoblanib, shaxs shakllanishida kata rol o'ynaydigan namuna va taqlid singari shu darajada hal qiluvchi vazifani ado etadi. Chunki, kishi o'zaro shaxslararo munosabatlar jarayoniga kirishishi bilangina atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqeiliklardan xabardor bo'lib, ular o'rtasida axborot ayirboshlash yuzaga keladi. Aslini olganda ham kishilar o'z farzandlariga muloqot tarzida o'qtirib o'rgatadigan har qanday ilmiy, ijtimoiy tajribalari, malaka va bilimlari ham ijtimoiy-taraqqiyotning mahsuli sifatida kishilik

Birinchidan, shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning o'zi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlari tizimining shakllanishida oila omilining roli shundaki, bunda asosiy shakllantiruvchi mexanizm rolini, eng avvalo, oiladagi ma'naviy-ruhiy muhit, uni tashkil etuvchi ota-ona va yaqinlarning o'zaro munosabatlaridan tashqari ota-onaning farzandga bo'lgan munosabatlari, bola ongida shakllantiriladigan kognitiv fikr – tushuncha va g'oyalar katta rol o'ynaydi. Bu o'rinda tadqiqotimiz ota-onalarning o'zlari hamda o'z farzandlari haqidagi baholari, ya'ni ijtimoiy tasavvurlari turlicha bo'lishi, lekin onalarning baholari otalarnikidan yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, ota-onaning o'zaro munosabatlari ta'sirida maktabgacha yoshdagi bola ijtimoiy tasavvurlari tizimida shakllangan "Men" konsepsiyasi besh tarkibiy qismdan iborat bo'lib, unga qadriyatlar konsepsiyasi, nominatsiyalar konsepsiyasi, yosh konsepsiyasi, ijtimoiy muhit konsepsiyasi hamda jins

konsepsiyalari kiradi va ular o'ziga xos ierarxik tuzilmaga egadir. Taraqqiyotning har bir bosqichida ushbu bosqichning yetakchi faoliyati va omillariga bog'liq tarzda uning u yoki bu komponenti yetakchi bo'ladi. Biz o'rgangan toifada nominatsiya, jinsga oid konsepsiyalar qadriyatlar konsepsiyasiga nisbatan rivojlanganligi ma'lum bo'ldi.

Uchinchidan, maktabgacha yoshdagi taraqqiyot bosqichida jinsiy o'zlikni anglash konsepsiyasi, ya'ni shaxsning qaysi jins vakili ekanligiga oid tasavvurlar ustuvor bo'lgani uchun ham ota-ona va ular o'rtasidagi jinslararo munosabatlar o'zlikni anglash jarayonining bosh yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Yosh nuklear oilalarda otaning ustuvorligi tan olinsa-da, jinsiy o'zlikni anglashda bola uchun onaning hissiy yaqinligi ta'sirchandır.

To'rtinchidan, maktabgacha yoshdagi bola "Men" konsepsiyasining tuzilishi, uning ayrim unsurlari, ularning o'zaro nisbati va ontogenezning turli bosqichlaridagi mazmuni, shuningdek, ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi oilaviy munosabatlar bilan o'zaro aloqasi, avvalo, oiladagi munosabatlar va ota-onaning o'zlikni anglash darajasi bilan belgilanadi. Nuklear oilalarda erning ham, xotinning ham o'ziga nisbatan munosabatlari darajasi yuqori, aksariyatida o'rtachadan yuqori bo'lgani sababli, ularning bolaga ko'rsatadigan ta'siri ham sezilarlidir.

Beshinchidan, o'zini baholashning shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, u bolaning o'z "Men"ini baholashi va ota-onaning real bahosi o'rtasidagi aloqani namoyish qilib, bolaning istiqboldagi psixik rivojlanishini bashorat qilishga imkon beruvchi mexanizmdir. Bunda bolaning ota-onasidan kutayotgan baho tizimi, ota va ona beradigan baholar o'rtasidagi farq boladagi adekvat yoki noadekvat bahosi uchun ijtimoiy psixologik turtkidirki, tadqiqotimiz ushbu jarayonda onalar bahosining ancha adekvatligi va farzandlarning ham ular ta'sirida bo'lishini isbotladi.

Empirik izlanish natijalari va xulosalar asosida quyidagicha **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1) Bola shaxsi o'zini-o'zi anglashining komponentlari, eng avvalo, oilada shakllanar ekan, ota-onalar o'z farzandlarining ijtimoiy munosabatlarga to'g'ri kirishishlariga yordam ko'rsatishlari uchun xizmat qiladigan asosli ma'lumotlarni dissertatsiya natijalaridan olishlari;

2) ota-onalar dissertatsiya natijalaridan ota-onaning farzandiga munosabatida bolalikning dastlabki davrlaridayoq o'ziga ishonchni, mustaqillikni, atrofdagilar bilan munosabatda faol va vazmin bo'lish, vaziyatni tahlil etish ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida foydalanishlari;

3) MTM psixologlari dissertatsiya ma'lumotlari va metodikalari asosida bola shaxsi o'zini-o'zi anglash komponentlarining shakllanish darajasini aniqlashlari hamda ularga individual yondashib tegishli ko'rsatmalar berishlari;

4) boshlang'ich ta'limga o'quvchilarni qabul qilish jarayonida, shuningdek, maktab psixologlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik qiyofalarini aniqlashda va ularni mavjud ijtimoiy muhitga moslashishlari uchun tavsiyalar, qo'llanmalar, metodologik ko'rsatmalar ishlab chiqishlarida dissertatsiya metodlari hamda empirik natijalaridan foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

5) Oilaga psixologik xizmat ko'rsatuvchi amaliyotchi psixologlar, ayniqsa, yosh oila markazlarining psixologlari dissertatsiya xulosalaridan kelib chiqadigan tavsiyalarni maktabgacha yoshli farzandlarni tarbiyalashda qo'llash mumkinligini inobatga olishlari maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Karimov I.A. «O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida».
2. Karimov I.A. «Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» Toshkent, «O‘zbekiston», 1997 y. 283 b.
3. Karimov I.A. «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» Toshkent, «O‘zbekiston», 2000 y. 5 b.
4. Karimov I.A. «O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li» Toshkent, «O‘zbekiston», 1992 y. 80 b.
5. Karimov I.A. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» «O‘zbekiston» nashriyoti, 1995 y.
6. Avloniy A. «Turkiy guliston yohud axloq» Toshkent, «O‘qituvchi», 1992 y. 11-14 b.
7. Axatova D. «Abdurauf Fitratning oilaviy munosabatlarga oil qarashlari» «Xalq ta‘limi» jurnali Toshkent, 2006 y. 4-son, 62-65 b.
8. Ahliddinov R. «O‘zbek oilasi fazilatlarini» «Xalq ta‘limi» jurnali. Toshkent 1998 y. 1-son, 51-56 b.
9. Zunnunov A. «pedagogika nazariyasi» Toshkent, «Aloqasi» 2006 y.
10. Inomova O. «Farzand-nihol, ota-ona bog‘bon» Toshkent, «O‘qituvchi» 1994 y.
11. Ibragimov X. «Ekologik ta‘lim-tarbiyada bolalar bog‘chasining oila bilan hamkorligi» «Xalq ta‘limi» jurnali. Toshkent, 2004 y. 2-son, 59 b.
12. Inomova M. «Oilaviy tarbiyani takomillashtirishning nazariy asoslari» «Xalq ta‘limi» jurnali. Toshkent, 1998 y, 3-son, 12-19 b.
13. Inomova O. «Oila tarbiyasida milliy xususiyatlarni hisobga olish» «Xalq ta‘limi» jurnali. Toshkent, 2004 y, 5-son, 56-58 b.
14. Kaykovus K. «Qobusnoma» Toshkent; 1992 y, 82-87 b.
15. Lutfullaev N. «Oilaning tarbiyaviy ahamiyati» «Xalq ta‘limi» jurnali. Toshkent; 2005 y. 2 son. 44-48 b.
16. Musurmonova O. «Oila ma‘naviyati milliy g‘urur» Toshkent; «O‘qituvchi» 1999 y. 42 b.
17. Musurmonova O. «Oila yilida – oila manfaatlari bosh mezonini» «Xalq ta‘limi» jurnali. Toshkent; 1998 y, 1 son, 4-8 b.
18. Maqsudov T. tahriri ostida «Oila etikasi va psixologiyasi» Toshkent; «O‘qituvchi» 1991 y.
19. Munavvarov A.Q. «Pedagogika» Toshkent; «O‘qituvchi» 1996 y.
20. Mavlonova R., To‘raeva O., Holikberdiev K. «Pedagogika» Toshkent; «O‘qituvchi» 2001 y.

21. Rahimov J. «Inson odobi bilan go‘zal» «Xalq ta’limi» jurnali. Toshkent; 1992 y.
22. Uzoqov X., G‘oziev E., Tojiev A. «Oila etikasi va psixologiyasi» Toshkent; «O‘qituvchi» 1992 y, 125 b.
23. Uzoqov X., G‘oziev E., Oripova L. «Oila axloqi va odobi» Majmua. Toshkent; «O‘qituvchi» 1995 y, 198 b.
24. Uzoqov X., G‘oziev E., Tojiev A. «Oila etikasi va psixologiyasi» Toshkent; «O‘qituvchi» 1992 y.
25. Umarova M. «Oilani etnopsixologik o‘rganishga yana bir uslubiy yondashish» «Xalq ta’limi» jurnali. Toshkent; 1998 y, 2-son, 56-57 b.
26. Faxr ul Banot Sibg‘atulloh qizi «oila saboqlari» Toshkent; «Yozuvchi nashriyoti» 1992 y.
27. Xolmatova M. «Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish – sog‘lom avlod tarbiyalash omilidir» «Xalq ta’limi» jurnali. Toshkent; 1998 y, 1-son, 37-42 b.
28. Hosilova Z. «Oila – eng katta tarbiyachi» «Xalq ta’lim» jurnali. T; 200 y, 3-son, 7-8 b.
29. Qurbonov M. «Oila-milliy tarbiya uchog‘i» «Xalq ta’limi» jurnali. Toshkent; 1998 y, 1-son, 4-8 b.

ⁱ*Руссо Ж.-Ж.* Об общественном договоре, или Принципы политического права // Пед. соч.: В 2 т. – М.: 1981. – Т.2. – С. 170.

ⁱⁱ*Харчев А.Г.* Брак и семья в СССР. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: 1979. – С. 66.

ⁱⁱⁱ*Каримов И.А.* Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари // Туркистон газетаси. – Т.: 31.08.2002. – №.